

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ISPAN VA ITALYAN TILLARI KAFEDRASI

URINBOEVA DILNOZA KOMILOVNA

**O`ZBEK VA ISPAN TILLARI MISOLIDA ANIQLOVCHI VA UNING
O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (ispan tili) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“HIMOYAGA TAVSIYA
ETILADI”**

“Ispan va italyan tillari” kafedrası
mudiri _____ dots. A.B.Begmatov

ILMIY RAHBAR

Davurov H.Sh

“ ____ ” “ _____ ”, 2018 yil.

Samarqand– 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I BOB. ISPAN TILIDA ANIQLOVCHI IKKINCHI DARAJALI GAP BO'LAGI SIFATIDA.....	
1.1. Aniqlovchi: sintaktik va semantik xususiyatlari.....	
1.2. Aniqlovchining ifodalanishi.....	
1.3. Aniqlovchining gapdagi o'rni.....	
1.4. Aniqlovchining turlari va ularning artiklga ta'siri.....	
1.5. Aniqlovchi ergash gaplar.....	
1.6. Aniqlovchining tarjimada ifodalanishi.....	
II-BOB. O'ZBEK VA ISPAN TILLARI MISOLIDA ANIQLOVCHI.....	
2.1. Aniqlovchi va uning o'zbek tilida ifodalanishi.....	
2.2. Ispan tilida aniqlovchi va uning tahlili.....	
III-BOB. O'ZBEK VA ISPAN TILLARI MISOLIDA ANIQLOVCHINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	
3.1. O'zbek tilida sifat so'z turkumi.....	
3.2. Sifat darajalari.....	
3.3. Ispan tilida sifat so'z turkumi.....	
IV-BOB. ANIQLOVCHINING GAP BO'LAKLARI ORASIDA TUTGAN O'RNI.....	
4.1. Gaplarni bo'laklarga ajratish tamoyillari.....	
4.2. Izohlovchi.....	
4.3. Gap bo'laklari ierarxiyasi.....	
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	

Taraqqiyotning umumiy ko'lamida
har bir xalqning o'zni - o'sha xalq
o'qiyotgan kitoblarning soni bilan
belgilanadi ” – **Y. Labule**

Butun kurrai zaminimizda kitoblarning roli beqiyosdir. Ular bizni to'g'ri yo'lga boshlaydi, o'zni kelsa maslahat beradi, turli muammolar va ziddiyatlarning yechimini topishni va hal qilishni o'rgatadi, insonlarni ruhlantiradi, kayfiyatni ko'taradi, samimiylikka va go'zallikka oshno qiladi. Xullas har tomonlama tarbiyalaydi. Kitoblarni sevadigan insonlardan g'arazli niyatlar yiroqlashadi. Zero, bizning xalqimiz azaldan kitob sevar hamda kitobni e'zozlaydigan hisoblanadi. Inson uchun eng yaqin do'st kitobdir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori 2017-yil 13-sentabr kuni e'lon qilindi¹. Bu farmon aynan kitob nashri, mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan. Ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadi ko'zlangan. O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan, takrorlanmas buyuk tariximiz, an'alarimizga asoslangan va shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan kitoblar tayyorlandi. Milliy dasturning bunday xususiyatlaridan biri xorijiy tillarni puxta egallaydigan, O'zbekistonning xalqaro andazalardagi taraqqiyotini ta'minlay oladigan, dadil o'z mustaqil fikriga ega, malakali, bilimdon va ma'nan boy mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

¹ Mirziyoyev.Sh.M. «Kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori. 2017-yil 13-sentabr.

Milliy modelimizga qo'shilgan ushbu qo'llanma ham dengizdan bir tomchi bo'lib, komil inson va yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashda o'z hissasini qo'shadi, degan umiddamiz. Mazkur qo'llanmaning yaratilishiga Respublikamiz Birinchi Prezidentining 2006-yil 31-maydagi "Umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham jiddiy turtki bo'ldi. Bu bejis emas, albatta. Butun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilayotgan, o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati juda kattadir. Binobarin, biz shu narsaga alohida urg'u bermog'imiz lozimki, chet tillarni o'rganish jarayoni ona tilini o'rganish va o'rgatish, ona tilini esdan chiqarish hisobiga emas, balki qiyosiy bo'lmog'i lozim. Shundagina umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan farzandlarimiz xorijiy tillarning ajib dunyosini kashf qila olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Shu o'rinda yurtboshimizning quyidagi aytgan so'zlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. "Bizning diyorimiz buyuk allomalarni yetishtirgan. Butun ilm ahli ular bilan faxrlanadi. Ular asos slogan milliy ilmiy tafakkurning an'alarini davom ettirish va boyitish uchun bizda hamma shart-sharoitlar bor."¹ Mazkur qo'llanmalar nafaqat o'zbek o'quvchisiga mo'ljallangan, balki u xorijiy o'quvchilarni uchun O'zbekiston va uning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tasnishish imkoniyatini yaratishi tufayli ham qimmatlidir. Sharq dunyosida azaldan ilm-fanga juda katta e'tibor berib kelingan va ilmni o'rgatuvchi kishining mas'uliyati juda katta hisoblangan. Zero, "Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar" – deyiladi hadislarda. Shunday ekan yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni zamon talablariga mos ravishda ta'lim berish katta mas'uliyat, bilim va g'ayrat yana yaxshi mutaxassis ta'lab qiladi.

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, ispan tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda aynan ispan tilini chuqur

¹ Karimov I. A. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" – Toshkent, 2000. 61-bet.

o'rganishga yordam bo'ladigan o'zbek talabalari ispan tilini o'rganishlarida asosiy vosita hisoblanadigan o'quv qo'llanma tuzilishi va aniqlovchining ahamiyati, ikki tilning grammatikasi, ularning o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash tomonlari farqlarni ko'rsatishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Aynan ispan tilidagi aniqlovchini o'zbek tilida talqin qilish va qoidalarini o'zbek tiliga o'girish ancha qiyinroq hisoblanadi. Chunki ispan tilidagi ba'zi qoidalar o'zbek tili grammatikasida uchramaydi. Masalan, rod tushunchasi o'zbek tilida umuman yo'q. Lekin oddiy o'tgan zamon o'xshash hisoblanadi. Shuningdek, istisno holatlari ham mavjud. Bundan tashqari, har ikki tilda aniqlovchini mos ravishda talqin etish va qiyoslashda bir qancha dolzarb qoidalar uchrayni, aynan shunday holatdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda talabaning mahorati katta rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ispan tili ahamiyatli ekan uni tadbiq etish, har tomonlama chuqur o'rganish ham muhim. O'zbek tilidagi ispan tili darsliklari kam. Ayniqsa tilning sintaksis bo'limi kam o'rganilgan. Bu bo'lim albatta tarjimada katta ahamiyat kasb etadi.

Ispan tilida aniqlovchilarning o'ziga xos xususiyatlari, uning artiklga ta'siri haqida izlanish olib borar ekanman, aniqlovchi bo'yicha qator hal etilmagan masalalarga duch keldim. Masalan, "aniqlovchi ikkinchi darajali gap bo'lagimi?" Bu tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan savol. Mavzuning dolzarbligi yana ispan tili aniqlovchilarining o'zbek tilida tarjimasida ko'rinadi. Tarjima lingvistika, ma'daniyatshunoslik, qiyosiy etimologiya, informatika, qiyosiy sotsiologiya va boshqa shu kabi turli xil fanlar bilan uzviy bog'liq fandır. Ayniqsa uning tilshunoslik bilan aloqasi beqiyosdir. Haqiqatda ham tarjimaning tilshunoslik bilan chambarchas bog'liqligi ba'zilar tarjima borasidagi noto'g'ri bahs-munozaralarga, masalan, uni tilshunoslikning bir qismi deb talqin etishga olib kelgan. Bunday fikr tarafdorlari tarjimani amaliy yoki qiyosiy tilshunoslikning bir qismi deb hisoblashadi. Strukturalistlar ta'siri ostidagi bu qarash tarafdorlari tilshunoslar tomonidan keltiriladigan kontekstdan tashqari misollarga mos kelmaydigan muloqotning rolini rad etishga urinadilar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ispan va o'zbek tillarida aniqlovchining o'ziga xos xususiyati, o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish orqali ularning o'ziga xosligini ham nazariy, ham amaliy asoslab berish bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga, o'zaro ikki tillar o'rtasidagi qoidalarini to'g'ri tahlil qilish va tarjimani mantiqiy jihatdan to'g'ri chiqarishdan iboratdir. Birgina adabiyotdan foydalanish maqsadga muvofiq emas, kitoblardan ma'lumotlarni izlash talab etiladi. O'tmishdan nazar solganda jamiyatda turli-tuman yangiliklar hamda ixtirolarning paydo bo'lishi, insoniyatning harakatlari va ehtiyojlari sababli paydo bo'lgan. Jumladan, shaxslar orasida o'zaro muloqot jarayoni hamda tillarning hozirgi darajada rivojlanishi asrlar osha izlanishlar oqibatida yuzaga kelgan. Aniqlovchi nafaqat ispan tilida, barcha tillarda aktual (dolzarb) mavzu hisoblanadi. Chunki insonlar orasida fikrlarni bayon etish, ishlash jarayoni hamda rasmiy vaziyatlarda aynan aniqlovchiga ko'proq urg'u beriladi. Aniqlovchi orqali tilshunoslik yanada kengaygan hamda to'liq og'zaki nutq hosil qilishda asosiy grammatik vosita hisoblanadi. Og'zaki nutqda aniqlovchi turli jamoada turlicha ko'rinishda ishlatadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, aniqlovchi badiiy, ilmiy, rasmiy hamda publitsistik uslublarda turli ko'rinishda ishlatiladi. Adabiyotda aniqlovchi badiiy uslubda qo'llanilib, obraz yaratishda eng kerakli hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan grammatik vosita hisoblanadi. Ushbu malakaviy ishning asosiy maqsadi ikki soha ya'ni, tilshunoslik va tarjima sohalarini bir-biridan farqlagan holda ularning o'zaro aloqalarini o'rganish va ispan tili aniqlovchilarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning artiklga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida ispan tilidagi aniqlovchilarning sintaktik va semantik xususiyatlari, ularning ifodalanishi, gapdagi o'rni, turlari, ularning artiklga ta'siri va o'zbek tilga tarjima qilish usullari haqida muhokama qilinadi.

Ishning predmeti va obykti. Sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rganadi. Demak ispan tilida aniqlovchilarning o'ziga xos xususiyatlar va artiklga ta'sirini o'rganishda tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashiladi va ish shu tarzda olib borildi. Shu bilan birgalikda ularning o'zbek tilida ifodalanishiga ham katta

e'tibor qaratildi. Tarjima etika, estetika, stilistika, tilshunoslik, psixolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq ekan, ishning predmeti va obyekti nutqiy jarayon, badiiy asarlar hamda turli tillardagi tarjima asarlari hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan esa til birliklari ayni shu vazifadadir.

Ishning nazariy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati tilshunoslik fanining sintaksis bo'limi bugunga qadar erishgan yutuqlarini o'rganish ularni umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan.

Unda aniqlovchi, uning ifodalanishi, gapdagi o'rni, turlari va ularning artiklga ta'siri, tarjimada ifodalanishi borasida so'z yuritiladi. Talabalar "aniqlovchi nima?", "u qanday ifodalanadi?", "ispan tilida aniqlovchilarning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?", "aniqlovchi artiklga qanday ta'sir ko'rsatadi?", "ispan tili aniqlovchilarni o'zbek tiliga qanday tarjima qilish mumkin?" kabi savollarga ilmiy asoslangan javoblar olishadi.

Ishning amaliy ahamiyati. Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan tilshunoslikning sintaktik bo'limi chuqur lingvistik bilimni talab qiladi. Tarjimada aniqlovchilarni tog'ri ifodalash esa aslyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis yetkazib berishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ispan tili aniqlovchilarining o'ziga xos xususiyatlari, aniqlovchining artiklga ta'siri haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularning tahlilini, tarjimada berilishini, asosli misollar bilan yoritish; mavzu bo'yicha talabalar uchun qo'shimcha yoki asosiy qo'llanma sifatida o'zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin.

Ishda qo'llanilgan metodlar. Bizga ma'lumki, biror nutqni tarjima qilishda tarjima qilinayotgan nutq ona tili bilan solishtirilib, qiyoslab tarjima qilinadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda ham qiyoslash, tahlil qilish va sintaktik jarayonlarni tushuntiruvchi transformatsion metodlardan foydalanildi.

I BOB. ISPAN TILIDA ANIQLOVCHI IKKINCHI GAP BO'LAGI SIFATIDA

1.1. Aniqlovchi: sintaktik va semantik xususiyatlari

Aniqlovchi ikkinchi darajali gap bo'laklari o'rtasida ajralib turadigan sintaktik birlik. U o'z tuzilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. "Ikkinchi darajali bo'laklardan to'ldiruvchi va hol fe'lga bog'lanib kelsa, aniqlovchi otga bog'lanib keladi. To'ldiruvchi va hol gapning mustaqil bir bo'lagi sifatida doimo kesimga tobe bo'lib kelsa, aniqlovchi esa birikma tarkibida uning bir elementi sifatida ega, kesim, to'ldiruvchi, hol va hatto bir aniqlovchi ikkinchisiga tobe bo'lib kelishi ham mumkin". Aniqlovchining yana bir o'ziga xos xususiyati u o'zi aniqlayotgan bo'laklardan ham oldin ham keyin kela olishidir. Shu sababli rus tilshunos olimi B. Ilish aniqlovchilarni "Adjetivo" hamda "Adjectivo" atamaları bilan nomlagan¹.

Aniqlovchi tilshunoslikdagi murakkab atamalardan, tilshunos olimlar asarlarini o'qirkanmiz o'zgacha bahsga duch kelamiz. Bu B. Ilish ta'kidlaganlaridek ikkinchi darajali bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmaganligidan bo'lsa kerak.

O'. U. Usmonov aniqlovchiga "gapning ikkinchi darajali bo'laklaridan biri bo'lib, u gaplarda ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan gap bo'laklarini, sifat va ularning belgilarini ko'rsatadi" deb ta'rif berganlar. To'g'ri, ko'plab adabiyotlarda aniqlovchi o'zini aniqlab keladi deb, to'liq ta'rif berilmagan. Bu ta'rifda aniqlovchi ot va otlashgan so'zlarning belgisini bildiradi olishi aniqlovchini batafsil tavsiflasada, lekin aniqlovchining sifatning belgisini bildiradi olishi biroz tushinarsiz. Bunga keltirilgan adabiyotda yetarli misollar berilmagani sababdir.

Rus tilshunoslaridan K. N. Kachalova va E. E. Izrayelovichlar aniqlovchini quyidagicha tavsiflashadi: "Определение называется второстепенный член предложения, который обозначает признак предмета. Определение относится к существительному. Значительно реже оно относится к местоимениям-

¹ Abdullaev M. va boshqalar "Ispan tili grammatikasi" – Toshkent, 2008

существительным”¹. Ta’rifda aniqlovchini faqatgina predmetning belgisini bildirib olishi va u otga bog’lanib kelishi aytilmoqda va bu ta’rif aniqlovchini to’liq tavsiflay olmayapdi (aniqlovchi nafaqat predmetni balki shaxsni ham belgisini bildirib kela oladi, masalan: la guapa chica), lekin aynan Kachalova va Izrayelovichlar aniqlovchini olmoshning ham belgisini bildirib kela olishiga e’tibor qaratishgani diqqatga sazovar, chunki aniqlovchining bu jihatiga boshqa adabiyotlarda ko’p e’tibor qaratilmagan.

Ingliz tili tilshunoslaridan yana biri V. Kaushanskaya aniqlovchiga quyidagi ta’rifni beradi: “The attribute is a secondary part of the sentence which qualifies a noun, a pronoun, or any other part of speech that has a nominal character... It may be expressed by any part of speech.” Bu yerda olimaning aniqlovchini to’liq tasvirlay olganini ko’rish mumkin, chunki aniqlovchi ot va olmoshni aniqlab kela oladi va har qanday so’z turkumi bilan ifodalana olinadi. Shuni aytib o’tish kerakki, ko’pgina adabiyotlarda aniqlovchi ergash gaplar aniqlovchining bir turi sifatida qaralmoqda va aniqlovchi nafaqat ot, olmosh balki gaplarni ham aniqlab keladi deya ta’rif berish mumkin.

Qator adabiyotlarni o’rganib, xulosa sifatida aniqlovchiga quyidagicha ta’rifni berish mumkin: Aniqlovchi sintaktik birlik ya’ni 2-darajali gap bo’lagi hisoblanib, u que? Que tipo es? (qanday?), de quien? (kimning?), cual? (qaysi?), cuanto? (qancha?), cuanto? (nechta?) kabi so’roqlarga javob bo’lib, shaxs va predmetning belgisini bildirib keladi. Gapda mustaqil so’zlar, ularning vazifadosh shakllari, frazalar va ergash gaplar (sifat, sifatdosha, sifatdoshli ibora, son, olmosh, ot, infinitiv, gerundiy) bilan ifodalanib bosh va ikkinchi darajali gap bo’laklari hamda gaplarni izohlab kela oladi. Aniqlovchi izohlayotgan, aniqlayotgan hokim qism – aniqlanmish ot bilan ba’zida olmosh (uno, unos, cada, no olmoshlaridan yasalgan olmoshlar) bilan ifodalanadi. Shu sababli “aniqlovchi otni va otlashgan so’zlarni aniqlab keladi deb ta’rif beriladi. Aniqlovchi ispan tilida “Adjetivo” ,

¹ Ахманова О.С. “Словар лингвистических терминов” – М., 1969

“Adjectico” atamaları bilan nomlanadi, ammo “Adjetivo” atamasi keng qo'llanadi va bu termin bizningcha tegishli sintaktik birlikni to'liq tavsiflay oladi.

Ammo ispan tili nazariy grammatikasiga doir adabiyotlarda aniqlovchining qanday gap bo'lagi borasida qizg'in bahs ketadi. Bu borada B. Ilish ko'plab misollarni keltirgan. Olim ko'proq “aniqlovchi o'zi ikkinchi darajali gap bo'lagimi?” savoliga javob topishga harakat qiladi. Olimning mushohadalariga e'tibor qarataylik:

“Hozirgi ispan tilida otdan oldin keladigan aniqlovchilarning hajmi katta bo'lishi mumkin. Bu artikl va ot o'rtasida har qanday so'z kelaverishiga bog'liq, aynan shu o'rtada qo'llanilgan so'z yoki so'zlar aniqlovchi deb tushiniladi. Aniqlovchining ma'lum miqdorda uzun bo'lishini odatdagi badiiy uslubda uchratish mumkin.

Bunaqa aniqlovchilar butun ergash gapni ifodalay olganligi sabali, hajviy adabiyotda mutunosiblikka erisha olmoqda. Uning vazifasi berilgan qismning aniqlovchi funksiyasini bajaroyotganini ko'rsatishdan iborat. Bu nutqda aytilmaydi, bu aniqlovchida ayniqsa sifatda son, rod, kelishik yo'qligi bilan izohlanadi.”¹ Olim turli misollarni o'rganib chiqarkan aniqlovchini ikkinchi darajali gap bo'lagi emas, balki doim tobe munosabatda bo'ladigan, hatto boshqa bir ikkinchi darajali gap bo'lagiga ham ergashib kela oladigan fraza deb nomlaydi. Sintaktik aloqa – tobe-hokim munosabatda. Aslida barcha ikkinchi darajali gap bo'laklari bosh bo'laklarga tobe munosabatda bo'ladi, shu jihatdan gapda aniqlovchi boshqa ikkinchi darajali gap bo'laklari singari alohida o'ziga xoslik kasb etmayabdi, balki “ikkinchi darajali gap bo'laklaridan past darajada turibdi”. Bu kabi jarayonni keyingi aniqlovchilarda ham ko'rish mumkin

Demak aniqlovchi sintaktik tahlilga ta'sir ko'rsatmasada, uning gapda semantik ahamiyati bor va bu yuqorida B. Ilish tomonidan qo'yilgan savolga ancha bahsli tortishuvni yuzaga keltiradi.

1.2. Aniqlovchining ifodalanishi

¹ Витганштейн Л. “Новое в зарубежной лингвистике” – М., 1985

Aniqlovchi qanday so'zlar bilan ifodalanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat bilan (aniqlovchining eng ko'p ifodalanish usuli):
2. Sifatdosh bilan (Hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlari):
3. Sifatdoshli ibora bilan:

K.N. Kachalova Sifatdosh I va II ning aniqlanishidan keyin kelishini aniqlovchining sifatdoshli ibora bilan ifodalanishi deb nomlaydi, shu bilan birgalikda bu sifatdosh birikgan boshqa so'zlar ham bor. Shu jihatdan bu birikmalar aniqlovchining sifatdoshli birikma bilan ifodalanishi deyiladi.

4. Son bilan (sanoq va tartib sonlar):
5. Olmosh bilan (egalik, gumon, ko'rsatish, so'roq, nisbiy olmoshlar):

Ispan tilida egalik olmoshlari aniqlovchi vazifasida kelganda, bunday gaplarning o'zbek va rus tillaridagi tarjimasida bu olmoshlar ishtirok etmasligi mumkin. Bu egalik olmoshlari o'zbek tilida egalik qo'shimchalari bilan ifodalansa, rus tilida ular tushib qoladi:

Me estrecho la mano

U menga qo'lini tutdi.

Он протянул мне (-) руку.

6. Ot bilan:

a) Bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanadi. Ispan va o'zbek tillarida bosh kelishikdagi ot aniqlanishidan oldin kelib aniqlovchi vazifasida kela oladi. Bu ispan va o'zbek tillarining o'ziga xos xususiyati, ammo rus tilida otlar ikkinchi bir ot oldidan aniqlovchi bo'lib kela olmaydi:

b) Qaratqich kelishigidagi ot bilan. Bu vaziyatda aniqlovchi doim o'zi aniqlayotgan bo'lakdan oldin keladi:

Ispan tilida qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanyotgan aniqlovchini predlogli ot bilan ham ifodalash mumkin. Qaratqich kelishigi hozirgi ispan tilida ko'proq jonli otlarga (un estudiante, , el padre, un caballo) yoki kishilar guruhini ifodalovchi otlar (equipo, Espana)ga qo'shiladi. Narsa – buyum, predmetni

bildiruvchi otlar qaratqich kelishigida kelolmaydi va ular of predlogi yordamida tegishlilik ma'nosini anglatadi.

c. Predlogli ot bilan (aniqlanmish+of+aniqlovchi) yoki predlogli fraza bilan: Ispan tilida predlogli fraza bilan ifodalangan aniqlovchi o'zbek tiliga to'ldiruvchi sifatida tarjima qilinishi ham mumkin:

7. Ravish bilan:

Ispan tilida aniqlovchi ravish bilan ifodalanib, ravishlar aniqlanmishdan ham oldin ham keyin kela oladi. Rus tilida ravish aniqlanmishdan oldin aniqlovchi bo'lib kelolmaydi. O'zbek tilida esa ravish bilan ifodalangan aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi.

a) ravish bilan ifodalangan aniqlovchining aniqlovchidan oldin kelishi:

b) ravish bilan ifodalangan aniqlovchining aniqlovchidan keyin kelishi:

8. Infinitiv bilan:

Ispan tilida infinitive, infinitivli fraza, infinitivli qurilmalar aniqlovchi bo'la oladi va doim aniqlanmishdan keyin joylashadi:

9. Predlogli gerund bilan:

Ispan tilida predlogli gerundiy yoki predlogli gerundiyli qurilma aniqlovchi vazifasida kela oladi.

1.3. Aniqlovchining gapdagi o'rni

Ispan tilida aniqlovchilar gapda ma'lum bir o'z o'rniga ega emas. U ot ba'zida olmosh yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalangan har qanday gap bo'lagini aniqlab kelaveradi. Ya'ni aniqlovchini egadan keyin, yoki kesimdan keyin keladi deb aynan bir joyni ta'kidlab bo'lmaydi. Aniqlovchi ega, kesim, to'ldiruvchi, holni aniqlab ulardan oldin ba'zida keyin ham kelaveradi. Masalan:

Me hermano es un hermoso chico (Akam kelishgan yigit) gapida ham ega ham kesimning aniqlovchilari bor. Misollardan ko'rinib turibdiki, aniqlovchi har qanday gap bo'lagini aniqlab kela oladi va u aniqlayotgan bo'lagidan ham oldin ham keyin kela oladi. Shu sababli ko'pchilik tilshunoslar ispan tili aniqlovchilarini "post-positivo", "pre-positivo" atamalari bilan atashgan. Tarjima jarayonida aniqlovchining qaysi holatda aniqlanmishdan oldin va qanday holatlarda

aniqlanmishdan keyin kelishini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tilshunoslari Kachalova va Izrailovichlar bu holatga alohida e'tibor qaratishadi¹:

“Aniqlovchilar ifodalanish vositasiga ko'ra aniqlanmishdan oldin yoki keyin keladi.

1. Agar aniqlovchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalansa u aniqlanmishdan oldin keladi. ”

a) sifat bilan:

Ella compro un intreso libro. (U qiziqarli kitob sotib oldi)

Agar ot oldida ikki yoki undan ortiq sifat kelsa otga ma'no jihatdan yaqini unga yaqin tartibda joylashib boradi (Lekin yuqorida olimning sifatlarni ot oldida joylashuv tartibini o'rganganimizda, tilshunos olim sifatlarning o'ziga xos joylashuv formulasini taqdim etgan edi):

Agar aniqlanmish alguno, no, cada kabi olmoshlardan yasalgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi:

b) sifatdosh bilan:

Lekin sifatdosh sifatni bildirmasdan, faqat fe'llik ma'nosida ishlatilsa, u aniqlanmishdan keyin keladi.

c) son bilan:

d) olmosh bilan:

Este lapiz es muy buen. (Bu qalam juda yaxshi.)

e) bosh kelishikdagi ot bilan:

Estoy en cuidad librario. (Mana shahar kutubxonasi.)

f) qaratqich kelishigidagi ot bilan:

2. Aniqlovchi quyidagi leksik birliklar bilan ifodalanganda o'zi aniqlayotgan so'zdan keyin keladi:

a) sifatdoshli ibora bilan ifodalanganda:

b) aniqlovchi predlogli ot bilan ifodalanganda:

¹ Mo'minov O., Turg'unov R., Rashidova A., Alimova D., Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. Toshkent, 2008.

c) aniqlovchi infinitiv bilan ifodalanganda:

d) aniqlovchi predlogli gerund bilan ifodalanganda:

Misollarning tarjimasidan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida aniqlovchi doim o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin keladi.

1.4. Aniqlovchining turlari va ularning artiklga ta'siri

Aniqlovchilarni ifoda mazmuni, sintaktik xususiyati yoki artiklga ta'siri va boshqa bir qator faktorlarga qarab bir necha turlarga ajratish mumkin. Ispan tilshunoslari asosan aniqlovchini ifoda mazmuniga ko'ra 2 guruhga ajratishadi¹. Bular:

1. Tasvirlovchi aniqlovchi. Asosan sifat bilan ifodalanib, narsa buyumni belgisini, maza ta'mini, rang-tusini, hajmini, xususiyatini bildirib tasvirlab keladigan aniqlovchi – tasvirlovchi aniqlovchidir. Tilshunos olim B. Ilish fikriga ko'ra aniqlovchi doim artikl va aniqlanayotgan qism (ot yoki olmosh) o'rtasida keladi, lekin tasvirlovchi aniqlovchining ishlatilishi artiklga ta'sir ko'rsatib, uning aynan noaniq shaklini ishlatilishini talab qiladi, hatto ot sanalmaydigan ot bo'lsada. Hoy tuve desayune a las 8. I had breakfast at 8 today. (Men bugun soat 8da nonushta qildim)

Hoy tuve grande desayune a las 8. I had a big breakfast at 8 today. (Men bugun 8da kattagina nonushta qildim).

Misollardan ko'rinib turibdiki, tasvirlovchi aniqlovchi ishlatilganda artikl qo'llanilishini talab qiladi. Artiklning ba'zi qoidalariga e'tibor qaratsak bu yaqqol seziladi.

1. B'azi moddiy otlar shu moddaning alohida turini ifodalab kelganda, sanaladigan otga aylanadi va un/una bilan ishlatidi: (Bizningcha tasvirlovchi aniqlovchi ishlatilganda)

¹ Nazarova N. va boshqalar. Badiiy tarjima va uning ayirim masalalari. Qiyosiy-chog'ishtirma, tipologik va umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolari. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari), 2010.

3. Aniq bir vaziyatga nisbatan ishlatilganda kun qismlari nomlari oldidan Lekin: Sifat bilan kelgan kun qismlari nomlari un/una artikli bilan ishlatiladi (Bizningcha tasvirlovchi aniqlovchi ishlatilganda):

Lekin: Ba'zi birikmalar tarkibida kelgan kun qismlari artiklsiz ishlatiladi

4. Fasl nomlari the artikli bilan yoki artiklsiz ham ishlatiladi

Lekin: Fasl nomlari sifat bilan kelganda un/una artikli bilan ishlatiladi (Bizningcha tasvirlovchi aniqlovchi ishlatilganda):

5. Tasvirlovchi aniqlovchi bilan kelgan geografik nomlar un/una artikllari bilan ishlatiladi:

2. Ajratuvchi aniqlovchi. Demak ajratuvchi aniqlovchi biror shaxs yoki narsa buyumlar guruhidan aynan birini ta'kidlab ko'rsatuvchi aniqlovchidir. U "de"li ibora yoki nisbiy olmoshlar yordamida ifodalanishi mumkin va doim aniqlanmishdan keyin keladi¹. Endi ajratuvchi aniqlovchining artiklga ta'sirini ko'rib chiqaylik:

1. Boshqalaridan ajratib ko'rsatilgan turdosh otlar the bilan ishlatidi:

Bunday gapda ajratuvchi aniqlovchi mavjud deb ko'rsatish noo'rin. Chunki bu aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapdir.

2. "de" predlogi bilan kelgan turdosh otlar the bilan ishlatiladi (Ya'ni ajratuvchi aniqlovchi borligi sabab):

3. Umumiy ma'noda kelgan sanaladigan va sanalmaydigan otlar artiklsiz keladi. Lekin o'sha turdagi otning ma'lum bir turi nazarda tursa birlikda "un" artikli bilan ishlatiladi. Agar ot aniq holatda tursa "el" artikli bilan turadi:

4. Davlat yoki geografik nomlar ajratuvchi aniqlovchi bilan kelsa the artikli bilan ishlatiladi:

5. Til nomlari "lengua" so'zi bilan kelganda the artikli bilan ishlatiladi: .

Lekin: Til nomlari "lengua" so'zi bilan kelmasa artiklsiz ishlatiladi:

¹ O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek klassik adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida). Filol.fan. nom. Dis. Avtoreferat.-T.: 2008.

Yo studio espanol. (Men Ispancha o'rganyapman.) Agarda til nomlari yakka kelib, ajratuvchi aniqlovchi bilan ishlatilsa aniq artikli bilan ishlatiladi:

6. Kasallik nomlari umumiy holatda, ma'lum bir kasallik turini ifodalab kelganda artiklsiz ishlatiladi. Kasallik nomlari sanalmaydigan otlardir. Lekin: Ajratuvchi aniqlovchi bilan kelgan yoki biror kishining boshidan kechirgan kasallik nomi oldidan the artikli ishlatiladi:

Aniqlovchini yana qanday so'z turkumi bilan ifodalanligiga ko'ra ham guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, sitata orqali ifodalanadigan aniqlovchilar. Tilshunos olim V. L. Kaushanskaya bu aniqlovchini aniqlovchining ifodalanishi turkumida tasniflaydi.

3. Sitata orqali ifodalanadigan aniqlovchilar. O'zganing aynan gapi gap tarkibida aniqlovchi vazifasini bajaradi va bu sitata orqali ifodalanadigan aniqlovchidir. Bunday sitata aniqlovchilar faqatgina ispan tilida aniqlovchi xususiyatlariga ega bo'ladi va butun gap tarkibidagi so'zlar chiziqcha yordamida yoziladi hamda qo'shtirnoq ichiga olinadi. Rus tiliga "как будто", "точно" bog'lovchilari bilan, o'zbek tiliga to'ldiruvchi tarzida tarjima qilinib, aniqlovchilik xususiyatini yo'qotadi:

Мне не нравится то, что у него такой вид, как будто он хочет сказать: "Не разговаривайте со мной, а то я буду вам пречить".

Men uning "men bilan gaplashma, yoki sen bilan kelishmay qolamiz"ini yoqtirmayman.

B. Ilish ham aniqlovchilarning bunday turiga e'tibor qaratadi: "Bunaqa aniqlovchilar butun ergash gapni ifodalay olganligi sabali, hajviy adabiyotda mutonosiblikga erisha olmoqda.

4. Izohlovchi. (Explicativo, Apposition.) Aniqlanmishning (hokim so'zning) millati, jinsi, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi va hakoza kabi qo'shimcha belgilarni tavsiflovchi aniqlovchilar izohlovchi deb yuritiladi. Tilshunos olim V. L. Kaushanskaya aniqlovchining bu maxsus turini tushintiradi.

Nosotros somos dos hablar. We are two speaking, (Biz ikki kishi gaplashyapmish.) Yo tea mo Miss Paula (Men sizni sevaman, Miss Paula.) kabi

sintaktik birliklarni ana'anaviy grammatikalarda aniqlovchining bir turi, ya'ni izohlovchi deb tahlil qilinadi, ammo bu kabi sintaktik birliklarning gap qurilmasida qanday sintaktik aloqalar asosida ishtirok etishi, qanday differensial sintaktik va sintaktik-semantik belgilari haqida hech qanday axborot topilmaydi.

Izohlovchining ikkita turi bor. Ular:

1. Yaqin izohlovchi. Yaqin izohlovchi vergul bilan ajratilmaydi, aniqlanyotgan so'zga yaqin turadi. Bu so'z guruhlarida kishi nomi va qarindoshlikni ko'rsatuvchi ot yoki geografik joy nomi va turdosh otdan iborat bo'ladi. Masalan, Professor Antonio, Capitan Marryat, Presidente Karimov kabi. O'zbek tilida esa izohlovchi qarindoshlikni bildirganda uning aniqlanishidan keyin kelishi xos (Anna xola kabi).

Bu so'z guruhlarida aniqlanish shaxs yoki joy nomi bo'ladi va birinchi so'z turdosh ot bilan ifodalanadi, bu izohlovchidir. Ba'zan turdosh ot oldidan egalik yoki ko'rsatish olmoshlari ishlatiladi. Bu mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladi. Endi izohlovchining gapdagi o'rni almashadi. O'sha turdosh ot shaxs yoki joy nomi bilan izohlanadi:

Ba'zida izohlovchi of+ot shaklida bo'ladi.

La ciudad de Madrid .The city of Madrid (Madrid shahri)

2. Erkin izohlovchi. Erkin izohlovchi otga yaqin joylashmaydi. U doim vergul bilan ajratilib, o'z urg'usiga ega bo'ladi¹.

O'z navbatida izohlovchi ham artiklga ta'sir etadi:

1. Izohlovchi bo'lib kelgan turdosh otlar gapda un/uno bilan ish-di:

Toshkent es el capital de Uzbekistan, un Viejo y bonito ciudad

Tashkent is the capital of Uzbekistan, an old and beautiful city. (Toshkent O'zbekistonning poytaxtidir, qadimiy va chiroyli shahar.)

2. Lekin mashhur kishilarni ifodalagan izohlovchi so'z the bilan ish-di:

A.Navoi, un grande Uzbek poeto, nacio en 1441. A.Navoi, the great Uzbek poet, was born in 1441. (A. Navoiy, buyuk o'zbek shoiri, 1441-yilda tug'ilgan.)

¹ Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, Mumtoz so'z. 2011.

3. Kishi familiyasi yoki ismi oldidan kelgan unvon yoki mansabni ifodalovchi soʻzlar (bizningcha izohlovchi) artiklsiz ishlatiladi:

Professor Ikromov, Mr. Brown – Janob Braun, Presidenet Mirziyoyev, Poeta Zulfiya – Shoiri Zulfiya, General Rahimov.

Lekin: Unvon nomlari ismsiz yolgʻiz ishlatilsa the artikli bilan ishlatiladi:

El President, el General, la Poeta – shoiri.

1.5. Aniqlovchi ergash gaplar

Aniqlovchi ergash gaplar ham tilshunos olimlar tomonidan aniqlovchining bir turi sifatida eʼtirof etilmoqda.

Aniqlovchi ergash gaplar qoʻshma gapda aniqlovchi vazifasida keladi va bosh gapga ravishlari yordamida bogʻlanadi:

Aniqlovchi ergash gaplar qaysi otni aniqlayotgan boʻlsa, bevosita oʻsha otdan keyin keladi.

Aniqlovchi ergash gaplar uch xil boʻladi:

1. Ajratuvchi aniqlovchi ergash gaplar shaxs(lar) yoki buyum (lar) ning shu shaxs yoki buyumning yakka oʻziga xos alohida xususiyatlarini ifodalaydi va ularni shu turdagi hamma shaxs yoki buyumlardan ajratadi:
2. Tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplar shaxs(lar) yoki buyum(lar)ni belgi va xususiyatlariga qarab, Sunday shaxs yoki buyumlarning biror turiga kiritadi:
3. Tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplar shaxs(lar) yoki buyum(lar)ni tasvirlaydi, shaxs yoki buyumlar haqida qoʻshimcha maʼlumot beradi.

Ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplarni tushirib qoldirsak mazmun buziladi.

Ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplar bosh gapdan vergul bilan ajratilmaydi, tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplar odatda bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplarda quien, cual oʻrnida that ishlatilmaydi. Ajratuvchi aniqlovchi ergash gaplarda toʻldiruvchi boʻlib kelgan that koʻpincha tushirib qoldiriladi:

Agar nisbiy olmoshdan oldin predlog bo'lsa, va nisbiy olmosh tushib qolsa, predlog fe'ldan keyin keladi, agar to'ldiruvchi bo'lsa to'ldiruvchidan keyin keladi: Ega bo'lib kelgan nisbiy olmoshlar tushirib qoldirilmaydi¹:

Tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplarda nisbiy olmoshlar tushib qolmaydi. Aniqlovchi ergash gaplar ham artiklga ta'sir etadi. Artiklning qaysi turi ishlatilishi esa aniqlovchi ergash gaplarning qanday turi ishlatilganligiga bog'liq bo'ladi: ajratuvchi aniqlovchi ergash gap ishlatilganda artiklning aniq shakli, tasvirlovchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplar ishlatilganda esa artiklning noaniq shakli ishlatiladi.

1.6. Aniqlovchining tarjimada ifodalanishi

Aniqlovchili birikmalar qatnashgan gaplarni o'zbek tilga tarjima qilishda uchraydigan muommolar

Ispan tili analitik (ikki so'z o'rtasidagi grammatik munosabat so'z va so'z tartibi orqali namoyon bo'ladi.), o'zbek tili esa sintetik til (so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabat qo'shimchalar orqali beriladi: uyning tomi) ekanligi sababli tarjima jarayonida qator farqli holatlar aks etadi. Jumladan aniqlovchilarni tarjima qilishda ham shu holatga duch kelinadi.

Yuqorida "Aniqlovchilarning gapdagi o'rni" bo'limida ispan tilida aniqlovchilar aniqlanmishdan oldin ham keyin ham kelishi aytib o'tildi. Bu holat esa o'zbek tilida boshqacha, ya'ni aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi o'zbek tiliga xos. Aniqlovching "ajratilgan aniqlovchi" turi aniqlanmishdan keyin keladi. Bu o'z navbatida sinxiron tarjimonlarga bir qator muommolar to'g'iradi. Aslida aniqlovchini yaxshi tushinish, uning gapdagi o'rnini qiyoslab o'rganish tarjimonlarga ham, yosh til o'rganuvchilarga ham tilni mukammal o'rganishda qo'l keladi.

Aniqlovchi sifat, sifatdosh, son, olmosh, bosh kelishikdagi va qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalansa u aniqlanmishdan oldin keladi va bunday holatlarda aniqlovchini o'zbek tiliga o'girishda muommo to'g'ilmaydi.

¹ Salomov G'. "Tarjima nazariyasiga kirish" – Toshkent, 1978

Agar aniqlanmish unos, no, todo kabi olmoshlardan yasalgan soʻzlar bilan ifodalangan boʻlsa aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi. Sifatdosh ham sifatni bildirmasdan, faqat feʼllik maʼnosida ishlatilsa, u aniqlanmishdan keyin keladi va oʻzbek tilida tarjimada oʻsha aniqlovchini aniqlanmishdan oldinga qoʻyishga eʼtibor qaratish lozim. Buni bilish ispan tilidagi gapni ham yaxshi tushinishga yordam beradi.

Aniqlovchi sifatdoshli ibora, predlogli ot, infinitiv va predlogli gerund kabi leksik birliklar bilan ifodalanganda oʻzi aniqlayotgan soʻzdan keyin keladi va oʻzbek tiliga tarjima qilishda bunga ahamiyat berib, aniqlovchini aniqlanmishdan oldinda qoʻllash lozim.

Misollarning tarjimasidan koʻrinib turibdiki, oʻzbek tilida aniqlovchi doim oʻzi aniqlayotgan soʻzdan oldin keladi. Birgina aniqlovchining son bilan ifodalanganda oʻzbek tilida tarjima qanday boʻlishini koʻrib chiqaylik:

10 libros – 10ta kitob

Misoldan koʻrinib turibdiki “10 libros” soʻz birikmasi tobe + hokim munosabatda. Tarjimada ham bu holat oʻz aksini topgan. Lekin ispan tilidagi sanoq son oʻzbek tiliga dona son tarzida “ta” qoʻshimchasi bilan ifodalanmoqda. Ispan tilidagi son otga oʻz taʼsirini oʻtkazgan: “10 libros”, yaʼni ot koʻplikda, tarjimada esa ot birlikda. Bu soʻz birikmasini gapda qoʻllanilishini koʻramiz:

Tengo 10 libros en espanol en casa. (Menda Ispan tili boʻyicha uyda oʻnta kitob bor.) Misoldan anglashildiki, “10 libros” soʻz birikmasidagi son aniqlovchidir. Quyidagi misollarga eʼtibor qaratamiz:

Primero leccion– Birinchi dars

Bu soʻz birikmasida tartib son va ot tobe + hokim munosabatda. Tarjimada ham bu oʻz aksini topgan, lekin ispan tilida baʼzan bu birikma “leccion uno” shaklida ham uchraydi, yaʼni ot va sanoq son ishlatiladi, artikl tushirib qoldirilib, son otdan soʻng qoʻllanadi.

Leccion uno – Birinchi dars

Demak ispan tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda, son bilan ifodalangan aniqlovchilarni tarjimasiga eʼtiborli boʻlish lozim.

II-BOB. O'ZBEK VA ISPAN TILLARI MISOLIDA ANIQLOVCHI

2.1 Aniqllovchi va uning o'zbek tilida ifodalanishi

Aniqllovchi gap qurilishida, gapning boshqa bo'laklari kabi bevosita bosh bo'lak bo'la olmaydi, gapning har qanday bo'lagiga ergashib keladi va gap strukturasida ular bilan birga ko'rinadi. Aniqllovchilar o'zi tobe bo'lgan gap bo'lagining sifatini, sonini, ijtimoiy holatini, kim yoki nimaga oidligi va boshqa xususiyatlarini izohlaydi. Fikr ifodasigi aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqllovchilar odatda, aniqlanmishdan oldin (ba'zan keyin ham) keladi va ma'no jihatdan quyidagicha turlarga bo'linadi¹:

- 1) sifatlovchi aniqllovchi;
- 2) qaratqichli-aniqllovchi;
- 3) izohlovchi

Aniqllovchi predmetning belgisini anglatadigan bo'lakdir. Bunda belgi predikativ yo'l bilan emas, balki atributiv yo'l bilan aniqlanadi. Aniqllovchining belgi anglatishi miqdor yoki qarashlilik kabilarni ifodalashdan iborat. Aniqllovchining predmet (keng ma'noda) belgisini anglatishidan uning otga bog'lanishi kelib chiqadi. Bu ot gapning har qanday bo'lagi bo'lib kela oladi. Bu holat uning aniqllovchisiga ta'sir etmaydi. Aniqllovchi bo'lak aniqlanmish bilan zich bog'langan bo'ladi. Ularning ikkalasi birlikda aniqllovchili birikma sanaladi.

Aniqllovchilik hodisasi aniqlanmish bilan bo'lgan sintetik munosabat asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham aniqllovchining shakli va ma'no funksiyasi aniqlanmishning shakli va ma'nosi bilan munosabatda izohlanadi. Ularning sintaktik munosabatlari komponentlar o'rtasidagi bog'lovchi vositalari orqali ifodalanadi. Bu bog'lovchi vositalar asosan quyidagilardir: aniqllovchining aniqlanmish bilan ma'no munosabati, aniqllovchining aniqlanmishdan bevosita oldin kelishi, bog'lanayotgan bo'laklarning maxsus bog'lovchiga ega bo'lmasligi va ularning biri yo har ikkisi maxsus bog'lovchi formali bo'lishidir.

¹ Usmonov O'. U. "Xorijiy tillar nazariy grammatikasi" – Samarqand, 2012

Aniqlovchili birikmaga bo'g'langan aniqlovchilar sifatlovchi yoki qaratqich bo'lishi mumkin. Aniqlovchi turli yo'llar bilan ifodalanadi. Ya'ni aniqlashda semantik va grammatik xususiyatiga ko'ra bu vazifadagi so'zlar ham farq qiladi. Predmetning qandayligi, tusi, xususiyati, mazasi, shakli, xarakteri, harakatga ko'ra belgisi anglatilganda (sifatlovchida), aniqlovchi sifat, sifatdosh kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Biror shaxs yoki predmetga qarashlilik anglatilganda (qaratuvchida), aniqlovchi ot yoki ot o'rnida kelgan so'z bilan ifodalanadi. Aniqlovchi substantiv bo'laklarning belgisini qarashlilikini bildiruvchi shakl hisoblanadi. Masalan, Yo'lakning qoq o'rtasida, devor tagidagi yig'ma karavotda ikki bukilib o'tirgan, rangi sarg'ayib ketgan mushtdekkina chol Sherzodning ko'z o'ngiga keldi. Aniqlovchi predikat bilan uning argumenti sifatida munosabatga kirishmaydi. U predikat va uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi argumentlarning (asos) belgisini bildirib, ularni kengaytiradi, bir narsaning murakkab nomini-deskripsiyani hosil qiladi. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabati bir butun holda gap tarkibida muayan sintaktik vaziyatni egallaydi. Shuning uchun aniqlovchi gapni bo'laklarga ajratishning uchinchi darajasini tashkil etadi. Masalan, yuqorida keltirilgan gapda dastlab gapning mazmuniy va tuzilish markazi bo'lgan predikat-Sherzodning ko'z o'ngiga keldi ajratiladi. So'ngra bevosita predikat bilan munosabatda bo'lgan uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi bo'laklar belgilanadi. Xususan, subyekt valentligini to'ldiruvchi quyidagi bo'lak mavjud: yo'lakning qoq o'rtasida, devor tagidagi yig'ma karavotda ikki bukilib o'tirgan, rangi sarg'ayib ketgan mushtdekkina chol.

Undan so'ng subyekt valentligini to'ldirib kelgan qism o'z ichida yana bo'laklarga ajratiladi.

Jumladan, subyekt valentligini to'ldirib, ega sintaktik vazifatda kelgan chol bo'lagi mushtdekkina rangi sarg'ayib ketgan, yo'lakning qoq o'rtasidagi yig'ma karavotda o'tirgan kabi sifatlovchilarni olib kengaygan va predmetning murakkab nomini deksripsiyani hosil qilgan. Shuning uchun ham bo'linishning uchinchi bosqichida deskripsiya tarkibiy qismlarga ajratiladi. Ko'rinadiki, aniqlovchi gap tuzilishining emas, balki gap tuzilishida bir unsur sifatida funksiyalanuvchi

deskripsiyaning ichki tuzilishi unsuridir. Shuning uchun ham bu unsurlar predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat sifatida qaraluvchi gap tuzilishi uchun nofunktsionaldir. Ayrim gap bo'laklari gap tuzilishining unsurlari hisoblanar ekan, u holda aniqlovchi gap tuzilishining emas, predikatning murakkab nomi bo'lgan deskripsiya tuzilishining unsuri bo'lganligi uchun gap bo'lagi bo'la olmaydi. Aniqlovchi vazifasida qo'llanadigan sintaktik formalar predmet yoki predmetlashgan bo'lakning belgi xususiyatini anglatish uchun xizmat qiladi. Aniqlovchilarni tuzilishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

A) sodda (bir so'zdan iborat) aniqlovchilar;

B) tarkibli (birikma holdagi) aniqlovchilar.

Sodda aniqlovchilar quyidagicha ifodalanadi.

1. Ot bilan: Umaralining ko'zlaridagi quvonchini ko'rganda, Zumradning qalbi qattiq urib ketdi. (O); Shunday qilib, temir qo'llar yaratdi bu baxtni. (As. M).
2. Sifat bilan: Beg'ubor vijdon, pok qalb hamma narsadan yuksak va asldir (O). Haqiqiy ishq juda nodir (O).
3. Sifatdosh bilan: Aytar so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt (maqol). Oqqan ariqqa oqar suv (maqol).
4. Son bilan: Nursulton beshinchi sinfni tugatdi.
5. Olmosh bilan: Senig ko'z ilg'amas maydonlaringda jahannam qo'rqajak janglarni ko'rdim. (N.O).
6. Ravish bilan: Ozgina talabalar a'lo bahoga o'qimoqdalar.

Shunday o'lka doim bor bo'lsin, shunday o'lka elga yor bo'lsin (H.O).

Tarkibli aniqlovchining ifoda materiallarini so'zning analitik shakli yoki analitik xarakteragi sintaktik konstruksiyalari tashkil etadi.

Tarkibli aniqlovchilar quyidagi shakllar yordamida ifodalanadi.

1. Yetakchi komponenti+ost, ust, yon ich, bosh, etak kabi ot ko'makchilar: Bo'riboy qishloqni chetlab, to'qayning etagidagi so'qmoqdan yurdi (A.Q.).
2. Yetakchi komponent+kabi, singari ko'makchilari. Siz kabi onalar dunyoda kamdan-kam keladi.

3. Yetakchi komponent+haqida, xususida, to'g'risida, sohasida, borasida ko'makchilari. Sadoqatli do'stlar haqidagi rivoyatlarni ko'p eshitganman.
4. Yetakchi komponent+avval, burun, keyin, so'ng kabi payt ko'makchilari. Yomg'irdan keyingi musaffo osmonni ko'rsang diling yayraydi.
5. Yetakchi komponent- nomidagi, nomli, degan, ismli kabi ko'makchilar: Ozod Sharoffuddinov Beruniy nomli davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Dilfuza filologiya fanlari nomzodi degan ilmiy darajani oldi.
6. Yetakchi komponent+tuyulgan, tuzilgan, ko'rilgan, o'xshagan kabi: Nihoyat uzoq tuyulgan bu og'ir damlar ham intihosiga yetdi. (O.Yo).
7. Daraja ko'rsatuvchi yordamchi so'zlar+yetakchi komponent: Bobur yosh bo'lsa ham nihoyatda iste'dodli, nihoyatda dovyurak sarkarda ekanini Shayboniixon amalda ko'rdi (P.Q.).
8. Birikmali aniqlovchilar turg'un va erkin birikmalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan, Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq. (maqol). Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q-deyishadi.

Aniqlovchili birikmaga bo'lgan aniqlovchilar sifatlovchi yoki qaratqich bo'lishi mumkin¹.

A) Sifatlovchi aniqlovchili birikma aniqlanmishlar: Haligi tushkun kayfiyat, oqshomgi voqealar hozirgina ko'ringan tushday yo'qoldi (A.M.). Pidjagining taqidagi kiyilgan oq sadafli tugmali rangdor katak ko'ylak arzongina kostyumga juda mos kelgan.

B) qaratg'ich aniqlovchili birikma aniqlanmishlar: Ko'chaning ikkinchi boshida parajili bir ayol ko'rindi (G'.G'.). Tog'larning qorli cho'qqilari ko'kka tutashgan.

Qaratqich aniqlovchilar shakl jihatdan birikma aniqlanmishning bosh so'zida bog'langandek ko'rinsa ham, mazmunan butun birikmaga tegishli bo'ladi. Ana shunday birikma aniqlanmishlar tarkibida uyushiq aniqlovchilar ham bo'lishi mumkin.

¹ Usmonov O'. U. "Xorijiy tillar nazariy grammatikasining dolzarb muommalari" – Samarqand, 2013

Masalan, uning lo‘nda va aqlli gaplari hammasini hayratga soldi (Gazeta). Aniqlovchi uyushiq bo‘lakli tarkibning hamma komponentiga tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, tog‘ cho‘qqilari, yon bag‘irlaridagi xushqomat archalar, yong‘oq va boshqa daraxtlar chiqib kelayotgan quyosh nurlaridan zardek tovlanar edi.

Shuningdek, aniqlovchilar shakllanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi.

1) belgisiz aniqlovchi; 2) belgili aniqlovchi. Birinchi holda aniqlovchida uning aniqlanmishiga sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi alohida shakl bo‘lmaydi. Masalan, so‘lim qishloq, a‘lochi talaba, g‘o‘r yoshlik kabi.

2) Ikkinchi holatda esa alohida shakl

3) (asosan-ning) qo‘llanadi. Masalan, sening ishlaring. Dushmaning sirtida bo‘lguncha ichida bo‘l (maqol).

Agar birikmali aniqlovchilar uyushib kelsa, ularning ba‘zi komponenti sodda (bir so‘zli), ba‘zi komponentlari tarkibli bo‘lishi mumkin. Masalan, U oq junun kamzil ustidan beqasam to‘n kiygan, o‘rta bo‘yli, kallador, qora burma mo‘ylovli, dimog‘dor, qarashlari o‘tkir va tez, yoshi qirqqa yaqin bir odam edi. (O).

Aniqlovchi qapda o‘ziga bog‘langan so‘z bilan yashaydi. Aniqlovchi bilan aniqlanmish aniqlovchili birikmani tashkil qiladi. Aniqlanmish bo‘lmas ekan, aniqlovchi ham bo‘lmaydi.

Aniqlovchilarning ifodalanishi har xildir. Aniqlanmishdagi semantik va grammatik xususiyatiga ko‘ra bu vazifadagi so‘zlar ham farqli bo‘ladi. Predmetning qandayligi, tusi, xususiyati, mazasi, formasi xarakteri, harakatga ko‘ra bo‘lgan belgisi kabilar anglatilganda aniqlovchi sifat, sifatdosh bilan ifodalanadi: bir ozdan so‘ng katta uydan Zebining bidratma dutori va shirin ashulasi eshitildi (Ch). Birlashgan predmetga qarashlilik anglatilganda, aniqlovchi ot yoki shu vazifadagi so‘z bilan ifodalanadi. Sultonxonning ovozi xech qanday qaltirash, qo‘rqish va tortinish asarlari yo‘q edi, xuddi qichqirganday chiqardi (Ch).

Aniqlovchi belgi bildirishdagi leksik -semantik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra 3 xil bo‘ladi. “O‘zbek tili grammatikasi” ning 2 tomida aytib o‘tilgan. A.G‘.G‘ulomov, M.A. Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”

kitobida esa, aniqlovchi sifatlovchi va qaratqichdan iborat bo'lib, izohlovchi aniqlovchining bir ko'rinishi deya e'tirof etilgan¹.

2.2 Ispan tilida aniqlovchi va uning tahlili

Ispan tilida “adjectivo” ya'ni aniqlovchi so'zi lotin tilidagi “adjectivus” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, biror bir narsa qo'shish degan ma'noga egadir².

Masalan: la casa blanca- oq uy

Un buen hombre - yaxshi odam

El ojo derecho - o'ng ko'z

Aniqlovchilar orasida tilning shaxsiy og'zaki nutqi yoki suhbatdagi bir nechta aniqlovchilari mavjud bo'lib, ma'lum bir jamoa orasida jargon sifatida belgilangan. Ularni faqatgina ko'cha-ko'yda eshitish mumkin. Lekin lug'atlarda uchratib bo'lmaydi. Odatda istisno holatlar ham mavjud bo'lib, bunda jargon deb belgilangan aniqlovchilar umumlashtirilgan, hozirda ham davom etmoqda, ular ma'lum shaklga keltirilib, ispan tili lug'ati akademiyasiga tahrir qilingan.

Masalan: !Esta muy chungo (muy dificil)

Bu juda qiyin. Chungo - jargon bo'lib, dificil sifatida tasdiqlangan.

Es un chico guay (estupendo, bueno) Bu yaxshi yigit

Guay- jargon bo'lib, bueno sifatida tasdiqlangan.

Esa pelicula es muy cutre (de mala calidad)

Bu kino sifatsiz

Cutre- sifatsiz, jargon bo'lib, de mala calidad sifatida tasdiqlangan.

Unutmaslik lozimki, aniqlovchining mazmun kasb etishi gapdagi kontekst yoki fe'lga qarab aniqlanadi.

Masalan: Juan es bueno (bondadoso, yaxshi xulqli) Juan es bueno (guapo)
Bu misollarda “bueno” so'zi gapdagi fe'lga qarab mazmun kasb etadi.
!Ese bar es muy cutre(tacano)!

¹ Бархударов Л.С. “Язык и перевод” – М., 1975, 345с.

² Abdullaev M. va boshqalar “Ispan tili grammatikasi” – Toshkent, 2008

Sen jirkanch. Aniqlovchilar shunday so'zlar hisoblanadiki, ular gapdagi otning atributlari sifatida tasvirlanadi.

Ese pelicula es divertido - Bu kino qiziqarli.

Es una pelicula muy divertido. Nunca habia visto una pelicula tan divertido.

Aniqlovchi shunday xususiyatga egaki, u otni o'zgartiradi.

Ispan tili grammatikasi ikkiga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiyada so'z turkumlari grammatik ma'no, Grammatik ma'no shakllantiruvchi qo'shimchalar turlanish va tuslanish ham morfologiyada o'rganiladi. Grammatik ma'no- so'z qaysi turkumga oidligini ko'rsatuvchi manbadir. Shu bois ham mustaqil so'z turkumi hisoblanmish sifat so'z turkumi Grammatik vazifa jihatdan gapda aniqlovchi bo'lib keladi.

Masalan: pelicula (kino) grammatik ma'no ot so'z turkumi hisoblanadi.

III-BOB. O'ZBEK VA ISPAN TILLARI MISOLIDA ANIQLOVCHINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1 O'zbek tilida sifat so'z turkumi

Otga bog'lanib uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob boladigan so'zlarga sifat deyiladi. Masalan: go'zal, baland, xushbo'y, kemtik. Sifat gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: Yonbag'irlar ko'm - ko'k. Baqqol amaki pakana. yuzi katta. ivasi kalta odam. U juda sergap.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma,juft, takroriy sifatlariga bo'linadi.

Sodda sifatlar bitta asosli bo'lib, tarkibiga ko'ra tub va yasama bo'ladi. Yasovchi qismlarga bo'linmaydigan sifatlar tub sifatlar sanaladi. (Shakl yasalish qismi bundan mustasno). Masalan: qari, qoramtir, eskiroq, sariq.

Asos va yasovchi qismga bo'linadigan sifatlar esa yasama sifatlar deyiladi. Sodda yasama sifatlar asosga yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali hosil bo'ladi: guldor, sezgir, turkiy, kechki.

Qo'shma sifatlar ikki va undan ortiq asoslarning birlashuvidan tarkib topgan sifatlardir. Qo'shma sifatlar asosan qo'shib yoziladi. Qo'shma sifatlar tarkibi quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi: jigarrang, bodomqovoq, toshyurak ot + otdan; sofdil, shirinso'z - sifat + otdan; osmono'par, mehnatsevar - o t + fe'ldan.

Juft sifatlar o'zaro yaqin ma'noli yoki zid ma'noli ikki asosning juftlashishidan hosil bo'ladi. Masalan: katta-kichik, oq —qora, yaxshi-yomon - zid ma'noli qismlardan; uzuq-yuluq, esli-hushli yaqin ma'noli qism lardan tarkib topgan. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Qismlar orasida —u, - yuyuklama- bog'lovchilari bo'lsa, ular o'rtasida chiziqcha qo'yiladi va ajratib yoziladi: yakka -yu yagona.

Takroriy sifatlar bir asosning takrorlanishidan hosil bo'ladi va ular belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi: yangi-yangi, mayda-mayda, barra-barra.

Asliy va nisbiy sifatlar.

Belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: go'zal, suvli, achchiq, aqlli, yuzaki. Go'zal, go'zalroq, juda go'zal kabi.

Asliy sifatlar tuzilishiga ko'ra:

- sodda tub sifatlar: yaxshi, qiziq, egri, novcha, ozoda;
- sodda yasama sifatlar: tiniq, chiroyli, yulg'ich, bama 'ni, yasama.
- qo'shma sifatlar bo'la oladi: shirinso'z, xushbo'y, kaltafahm, ochko'z

Nisbiy sifatlar belgini to'g'ridan - to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlardir: yozgi, yig'ma, derazali, devoriy.

Nisbiy sifatlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

- sodda yasama: do'ppili, serg'alva, tonggi, chillaki, ro'molli;
- juft sifat: egri-bugri, sarg'ish -qo'ng'ir, mayda-chuyda, baland-past, qora-qura.

Sifatlarning morfologik xususiyatlari:

- 1) belgining darajasini ko'rsatadi: sho'x-sho'xroq, eng sho'x.
- 2) otlashadi: Kattalarni hurmat qiling.
- 3) ravish o'rnida keladi: Sattor chiroyli yozadi.
- 4) sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olib o'zgarishi mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: ko'k qalam, ko'k qalamni, ko'k qalamda kabi.

Sifatlarning sintaktik xususiyatlari:

- 1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: Yoqimli shamol esa boshladi. Tabiat go'zal. Sifat harakat belgisini bildirganda, hol vazifasida bo'ladi: Azimov sovuq, xira ko'kimtir osmonga g'amgin, xayolchan qaradi.

- 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotgan so'zi bilan moslashmaydi.

Sifatlarning otlashishi.

Otlashgan sifatlar kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. Egalik, kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, ko'plik qo'shimchasini oladi. Otlashgan sifatlar gap ichida ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi bo'lib keladi: Qozonga yaqin

yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang yarasi yuqar (maqol). Bilimlining kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar. Otlashgan sifatlar undalma ham bo‘lib keladi: Yaxshilar uni eslang!

Boshqa turkumdagi so‘zlarning sifat o‘rnida qo‘llanishi.

- 1) Otlar sifat o‘rnida qo‘llanadi: tilla (odam), kumush (qish), oltin (kuz), temir (oyoq);
- 2) sifatdoshlar: kelishgan (qiz), aytar (so‘z), kelajak (avlod); 3) ravishlar: oqilona (maslahat), tez (odam), o‘zbekcha (odat);

Sifatlarning tuzilish turlari.

- sodda sifatlar bir o‘zakdan iborat bo‘ladi: aqlli, yaxshi.
- qo‘shma sifatlar – rahmdil, ertapishar, havo rang.

Bunda sifatlar:

1) ikki tub so‘zdan tashkil topib, ot+ot, ot+sifat, sifat+ot, ravish+ot ko‘rinishlarida bo‘ladi: kulcha yuz (bola), xom semiz (yigit), kamgap;

2) biri tub, ikkinchisi yasama so‘zdan iborat bo‘ladi: ishyoqmas, erksevar, tilbilmas.

- birikmali sifatlar: uzun tolali (paxta), yoshi ulug‘ (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).
- juft sifatlar – o‘ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq.
- takroriy sifatlar – baland-baland, uzun-uzun, yo‘l-yo‘l (pijama).

Sifat so‘zlar o‘zlarining ma‘no xususiyatlari jihatdan ularning quyidagi semantik guruhlar mavjud:

1. Xususiyat bildiruvchi: yaxshi, yomon, aqlli, sergak, so‘zamol;
2. Holat bildiruvchi: go‘zal, erkin, suluv, cho‘loq, maymoq, cho‘tir, soqov, kar, ko‘r;
3. Rang-tus bildiruvchi: oq, qora, sariq, kul rang;
4. Shakl-ko‘rinish bildiruvchi: yapaloq, tekis, yassi, dumaloq;
5. Hajm-o‘lchov-masofa bildiruvchi: keng, tor, chuqur, katta, kichik;
6. Maza-ta‘m bildiruvchi: shirin, achchiq, nordon, sho‘r, achimsiq;
7. Hid bildiruvchi: xushbuy, sassiq, badbuy, muattar, qo‘lansa;

8. Vazn-ogʻirlik bildiruvchi: ogʻir, yengil, zildek, vazmin;
9. Oʻrin va paytga munosabat bildiruvchi: yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, uydagi, koʻchadagi.

Holat bildiruvchi sifat soʻzlar

Holat bildiruvchi sifat soʻzlar. Bunday soʻzlar baʼzan 10 guruhga boʻlib oʻrganilsa, bazan 6 guruhga ajratib oʻrganiladi. Biz ayrimlarini keltiramiz. Bu soʻzlar predmet, hodisa, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyatning belgisini ifodalaydi:

a) tabiiy holatning belgisini bildiruvchi sifatlar. Ijobiy holat: suluv, barno chiroyli, yaxshi kabi. Har qayerdagi yaxshi, suluv, barno qizlarning oti bor

Salbiy holat: kal, soqov kabi. oʻlmay chiqsam senday kalning baxtigatilini alahaqa choʻqib, soqovtob boʻlib qolgan edi.”Alpomish” dostoni

Baʼzi sifatlar faqat hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qoʻllanadi. Masalan: Jozning bir oyogʻi singan, bir qanoti mayib boʻlgan, oʻq tegib, holati ketib, shu yerga yiqilgan (“Alpomish” dostoni)

b) jismoniy va fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: bardam , pir, yosh , qari , koʻhna kabi. qancha yosh barno kanizlar oʻrtaga olib oʻtiripti. (“Ravshan” dostoni) Ravshanxon qarasa, bir koʻsa: juda koʻhna boʻlib ketgan pir koʻsa, uch yuzdan oshgan, toʻrt yuzga yanashgan juda qari koʻsa, yo yilidan adashgan, balki besh yuzga kirgan...(“Ravshan” dostoni) Misoldagi koʻhna soʻzi ning ifoda maʼnosi «qadimiy, eski» sifatida anglashilsa, nutqda bogʻli qurshovda soʻz maʼnosi jonsiz predmetdan jonli predmetga oʻtkazilgan. Shu soʻz orqali ijodkor koʻsaning juda ham qariligini boʻrttirib koʻrsatgan.

d) ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: miskin, mungliq , gʻamgin mayus kabi. (Mungluq singling senga arz qip turibdi, // qalmoqlarda checham jabr koʻribdi (Alpomish).

e)kishining hayotiy holatini ifodalovchi sifatlar: boy , gado, yetim, bechora. Boysari boy edi, Boyboʻri esa shoy edi (Alpomish).

Shakl – koʻrinishni bildiruvchi sifatlar

Shakl – ko`rinishni bildiruvchi sifatlar: keng go`shtdor kabi. Oqqiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz, o`zi to`lgan sog` qiz, o`rta bo`yli chog` qiz, o`ynagani bog` qiz, uyqichi emas sog` qiz, eri yo`q toq qiz, ko`p kalondimog` qiz, o`yinga qulayroq qiz, to`g`ri ishga bulayroq qiz, qora ko`z, bodomqovoq qiz, sinli siyoh qiz, tanasi to`sh qo`ygan keng qiz, urushqoq emas jo`n qiz, et ko`targan go`shtdor qiz, biqini tor to`shdor qiz, kachkil bet, past burun, o`rta bo`yli, qizil chiroyli, keng manglayli, qulog`i yupqa, iyagi sergo`sht, qoshi ko`proq bir-biriga tutash, ko`zi qisiqnoma qiz, boybichcha monand, og`ir ko`chgan qiz edi (“Ravshan” dostoni). Keng, go`shtdor, tor, kachkil, past, o`rta, yupqa, sergo`sht so`zlarning «sifat belgi», «barqaror belgi», «umumiy baho», «shakl-ko`rinish» ma`nolarida birlashib, inson tasvirini, uning qiyofasini chizib berishda qo`llangan. Ular o`zaro farqlovchi ma`nolar – keng-tor «antonim belgi», keng – «me`yor ortiq», tor – «me`yor kam», sergo`sht, go`shtdor «sinonim belgi», «me`yor teng» kabi ifoda ma`nolarida voqelashgan¹.

Hajm-o`lchov, masofa bildiruvchi sifatlar

Hajm-o`lchov, masofa bildiruvchi sifatlar: uzoq ,uzun , kalta , yaqin , chuqur kabi. Yo`lning uzog`ini bergin iloyim. Ols edi, men yaqinlab qolaman. Yuqorida keltirilgan sifat guruhlarining deyarli hammasi ko`chgan ma`nolarda qo`llanadi. Bunda ko`proq ekspressiv-emotsionallik munosabatlari ifodalanadi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar

Rang-tus bildiruvchi sifatlar: predmetning belgi xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Masalan: qizil, qirmizi, gulgun kabi.

Tabiatda ranglarning chegarasi yo`q. Lug`at boyligimizda ham rang bildiruvchi maxsus so`zlar rang, tuslarining hammasini aniq ifodalay olmaydi. Shuning uchun tilda ko`pincha bir rang bildiruvchi so`z bir necha rangni ifodalaydi va semantik qamrovi kengayadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkozional ma`nolari faqat nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Ushbu masalaga bag`ishlangan

¹ Zununov A., Hotamov H. Adabiyot nazariyasidan qo`llanma.-Toshkent, “O`qituvchi”, 1978.

qator ishlar ham yaratilgan. Binobarin, badiiy adabiyotda rang bildiruvchi sifatlarning ham semantik serma`nolik xususiyatini ko`ramiz.

Ko`k so`zi ning ma`nosida yashil, ko`k va ularning turli ma`no ottenkalari uyg`unlashgan holda qo`llanadi: Ustima kiyganim mening yashil-ko`k, // g`ariblikda bo`larmikan ko`nglim to`q. Odamlar ko`kini tashlab, vaqtini xushlab, o`z ishida bo`lsin, bozorini yurgizsin, savdo-sotiqni boshlasin. Misollardagi yashil, ko`k so`zlari rang ma`nosini saqlagan holda, qo`shimcha «motam, o`lim» ma`nosi yuklatilgan. Bu esa, ko`k, yashil so`zlarining ramziy vosita sifatida qo`llanganini ko`rsatadi. Adabiy tilda ko`k – temir kuporosi, temir sulfat, suvda oson eriydigan och yashil kristallik modda; ko`k-tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori yashil-sariq bilan ko`k rang o`rtaligidagi, barg yoki maysa rangidagi; sabza rang (kabi ma`nolarni bildirib «belgi», «sifat belgi», «rang bildiruvchi belgi» atash ma`nosida birlashsa-da, yashil «me`yordan ortiq», «adabiy uslubga xoslangan», ko`k «me`yordan kam», «badiiy uslubga xoslangan», ko`k «me`yordan o`rta», ifoda ma`nolarida bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, ko`k so`zi ning quyidagi ma`nolari mavjud:

a) «osmon» ma`nosi: Davlatli xon shunday ko`kka qaradi, // Olchi-chikka bo`lib endi aylanib

b) «yetti qat osmonning bir qavati» ma`nosi: Osmonda arvohtarlar, ko`kda malaklar, // Bir necha mazgil-joy sizdan so`rayman (“Alpomish” dostoni). Keltirilgan misrada kuchli mifologizm mavjudday ko`rinadi. Chunki, tasavvuf ilmi va hatto, hadislarda ham dunyoning yetti olami mavjudligi va ularning har birida o`zgacha hayot borligi haqida fikr yuritiladi. Osmonimni endi bulut bosdimi, // Ko`kdan yashin keng bog`imga tushdimi.

Shuningdek, misollardan aniq ko`rinib turibdiki, ko`k so`zi ning omonimik xususiyati ham matnda yuzaga chiqadi.

Ko`k, yashil so`zlari yoki yashil-ko`k juft so`zi ning «xafagarchilik», «o`lim», «motam» ma`nosiga qizil rangi qarshi qo`yiladi va unda «yoshlik», «navqironlik» ma`nolari ifodalanadi: Bekning oti po`lat suvliq chaynadi, // qizil kiyib gulday bo`lib jaynadi .

O'zbek tilida qizil rangining quyidagi ma'nolari mavjud:

- a) «xursandchilik» ma'nosi: Boshingga sanchilgan qizil gul bo'lsin, // Menday oyim jilovingga qul bo'lsin.
- b) «go'zallik» ma'nosi: Kuymasin hech kimning kulba xonasi, // o'rtanmasin qizil gulday tanasi.
- v) «yor, oshuqa» ma'nosi: Bog'bon bo'lmay, qizil gulni terasan, // Lolazor, bahrli yerda yurasan .
- g) «mavjudlik», «tiriklik» ma'nosi: qizil yuzim g'ariblikda sarg'ayib, // o'ligim bo'lmasin mening besohib. Ochilganda qizil g'uncha so'lmasin, // Dunyoda mard kishi hech bir o'lmasin.
- d) «mutlaqo», «o'taketgan», «g'irt» ma'nosi: Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi.

Qizillik tushunchasini ifodalashda gulgun, qirmizi, gulgun qirmizi, alvon, ol, so'zlaridan ham foydalaniladi. Ustingga kiyganing gulgun qirmizi. Toshga tegib tirnoqlari to'kilib, // Yurgan izga qo'chqil qonlar yoqilib. Oltin kosa, gulgun sharob, // Ichildi maydon ichinda (Ravshan dostoni).

Qizil, gulgun, qirmizi, gulgun qirmizi, alvon, ol, qo'chqil so'zlari «rang bildiruvchi belgi» ma'nosida birlashsa-da, qizil, qirmizi «me'yordan ortiq», «adabiy», ol, alvon «me'yordan past», gulgun, qo'chqil «me'yordan ortiq», «dostonlar tiliga xos» ma'nolari bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Ba'zan alvon so'zi «rang» ma'nosini emas, balki «turli, xilma-xil» ma'nosini bildirish uchun xizmat qiladin. Masalan: Kuygan alvon-alvon so'zlar.

Qora so'zi oq so'zi ga antonim sifatida ishlatiladi. Ichi qora niyating, // o'lsangda oq bo'lmaydi

- a) «uzoqdan ko'ringan sharpa, ko'lanka» ma'nosi: Ko'ringan qora kim bo'ldi?
- b) «mo'ljalga olingan yoki olinadigan narsa; nishon; mo'ljal» ma'nosi: Ul qoraga yaqin yetdi (
- v) «og'irchilik bilan bog'liq, mashaqqatli, azobli» ma'nosi: Bunda yotganingni yo'lbars bilmasin, // Kelib, senga qora kunlar solmasin (Rustamxon dostoni.
- g) «razil, qabih, yovuz» ma'nosi: qora ekan qilig'ing, bu qiliqni qo'ymading.

- d) «o`lim» ma`nosi: Mushtiparim enamni, // qaro yerga joylading?! .
- e) «sho`rli, baxtsiz» ma`nosi: Unga shikast bergan baxtim qorasi, // Uzoq edi ikkovining orasi.
- f) «farzand, jigargo`sha» ma`nosi: Oqizma ko`zingdan qonli jolangni, // Umri uzun bo`lsin ko`zi qorangni (Ravshan dostoni).

Ushbu fakt va dalillar qora so`zi ga alohida e`tibor bilan qarab o`rganishni taqozo etadi.

Xullas, qora so`zining funksional imkoniyatlari beqiyos bo`lib, ijodkor o`z fikrini obrazli ifodalashda, ta`sirchanlikni oshirishda qo`llashi mumkin.

Rang bildiruvchi so`zlarning ko`chma ma`nolari kontekstual bo`lganligidan, ularning ma`no xilma-xilliklari va ma`no qirralari, ular bog`liq qurshovidagi so`zlar vositasidagina yaqqol anglashiladi. Bu esa, sinonimik qatorlar hosil qiladi, mavjud ma`nodoshlik uyalari esa, ma`nodoshlik komponentlari soni jihatdan oshishiga sabab bo`ladi. Ma`nodoshlikdan keng foydalanish tilning poetik tasvirda boylik darajasini ko`rsatsa, badiiy asarda ijodkorning ulardan foydalana olish, mahorati darajasini ko`rsatadi.

Hayvon tuslarini ifodalovchi sifat so`zlar

O`zbek xalqi qadim-qadimlardan chorvachilik va yilqichilik bilan hug`ullanib kelganligi tufayli, ularning tilida chorvachilik, yilqichilik, ot anjomlariga oid so`z-atamalar kattagina o`rinni egallaydi. Sifatning bunday xususiyatlarini xalq dostonlaridagi otlarda ko`rishimiz mumkin va shu asosda tahlil qilamiz.

Hayvon tuslarini ifodalovchi sifatlarning stilistik imkoniyatlarini nazardan qochirmagan holda, ularni adabiy tilga qiyosan semantik jihatdan ikki guruhga bo`lish mumkin.

1. Ot tuslarini ifodalovchi so`zlar.

a) Faqat ot tuslarini ifodalovchi so`zlar: jiyron, saman to`riq , to`riq , saman kabilar. Masalan: Jiyron so`zi otlarning sarg`ish qizil yoki qizg`ish sariq tuslisini ifodalab keladi. Masalan: Ostida jiyron oti, ko`pdir Rustam g`ayrati.(Rustamxon dostoni)

To`riq so`zi qizg`ish jigar rang otlarning nomini bildiradi. Borayotir qalmoqshoxning to`r oti, // Shunday bo`lar to`riq otning odati .

Saman so`zi sariq tusli otlarga nisbatan yuritildi. «Saman sariga tush, yo olapocha to`riga tush, shapaqning zo`riga tush,» – deb qo`riqni soldi (“Alpomish” dostoni)

b) otlarning rangini ifodalovchi so`zlar: ola , tarlon kabi. Bo`z so`zi ko`kimtir oq yoki kulrang otlarga nisbatan ishlatiladi. Egarlab keltiring Tarlon bo`zimni.

v) ot rang-tuslarini ifodalovchi birikmalar: Bo`z chipor, oq to`riq, chovkar ko`k ,qora yol saman, tarlon ko`k kabi.

Tarlonko`k so`zi ola rang ustiga qoramtir, qizg`ish dog`lari bor ot tusini bildiradi.

Bo`z alvon so`zi , kulrang va qizg`ish aralash yoki qizg`ish dog`lari bor ot tusini bildiradi. Masalan: Ostingda o`ynaydi bo`z alvon oting, // Dushmanni o`rtaydi shonu shavkating.

2. Ot badanidagi farqlovchi belgilarga ko`ra nomlanishi: qashqa, oq tovon, oq tuyoq, oq chocha, chavkar // chovkar), olapocha kabi.

Olapocha so`zi oyoqlari oq-qora, oq-malla va shu kabi qorishiq tusli ot turi.

Masalan: «Saman sariga tush, yo olapocha to`riga tush, shapaqning zo`riga tush,» – deb qo`riqni soldi (Alpomish dostoni).

Oq tuyoq so`zi tuyoqdan yuqori qismi oq, qolgan qismi boshqa rangda bo`lgan otlarga nisbatan qo`llanadi¹.

Xullas, rang-tus bildiruvchi sifat so`zlar otlarning belgisini , rangini ifodalab, boshqa hayvonlarga nisbatan qo`llanmaydi². Ya`ni boshqa otlarga nisbatan qo`llanilmaydi. Lekin ayrim hayvonlarga rang-tus sifatleri ularning nomiga qo`shib qo`llaniladi. Masalan: Bo`zbo`ri, Qo`ng`irqayiq, Oqilon, Oqtovuq, Oqqush.

3.2 Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja.

¹ Богушевич Д.Г. “Об эволюции языка в современной лингвистике” – Минск, 2000, 267с.

² Львовская З.Д. “Теоретические проблемы перевода” – М., 1985. -164с.

1. Oddiy darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetlardagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi. Bu daraja belgining odatdagi me'yorda ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas: keng ko'cha, yashil barg, yaxshi odam.

2. Orttirma daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko'p ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

- morfologik usul:

- a) so'zning birinchi bo'g'ini ajratilib, unga keyingi bo'g'indagi birinchi undosh qo'shiladi-da, yopiq bo'g'in hosil qilinadi va undan keyin to'liq shakli takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana;

- b) so'zning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo'shiladi va undan keyin so'zning o'zi takrorlanadi: yap-yangi, ko'm-ko'k;

- v) so'zning birinchi bo'g'inidan keyin –ppa shakli qo'shiladi: soppa-sog', to'ppa-to'g'ri.

- leksik usul:

- a) maxsus kuchaytiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi: eng kichik, hammadan chiroyli, zap g'alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug'vor, xo'p bemaza, cheksiz quvonchli;

- b) so'zlarni takrorlash vositasida: zo'r-zo'r (polvonlar), uzundan-uzun (kechalar), ne-ne (olimlar); v) turli so'z birikmalari, iboralar yordamida: haddan ziyod chiroyli, misli ko'rilmagan (qahromonlik), qo'ling o'rgilsin (jonon).

- leksik semantik usul. Bunda belgi bildiruvchi so'zlar oldidan yoki ular o'rniga boshqa turkumdagi so'zlar qo'llanadi: zahar (garmdori), olov (bola);

- fonetik usul: a) unlilar cho'zib aytiladi: tooza, chuquur; b) undoshlar ikkilanadi:tekkis, yummsheq.

3. Qiyosiy daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga -roq qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin bir-biridan, undan ham,

yanada soʻzlarini keltirish bilan yasaladi: olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan goʻzal, bunda ham battar, yanada kuchli.

4. Ozaytirma daraja belgi darajasining normal darajaga yetmaganligini, normaldan pastligini ifodalaydi: 1) qoʻshimchalar yordamida: oqish, qizgʻish, qoramtir, -roq qoʻshimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): eskiroq (kiyim); 2) sifatdan oldin yarim, nim, och, xiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar soʻzlarini keltirish bilan: yarim ochiq (eshik), uncha katta emas.

Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.

Ozaytirma sifatlar oʻzakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi va quyidagicha yasaladi:

- -ish, -imtir (-mtir). Bulardan -ish, -imtir undosh tovush bilan bitgan oq, koʻk kabi soʻzlarga, -mtir esa faqat qora sifatiga qoʻshiladi: oqish, koʻkish, qoramtir.
- rangni bildiruvchi sifatdan oldin och, nim soʻzlarini keltirish bilan. Nim bilan hosil qilingan sifatlar qoʻshib yoziladi: och sariq nimpushti.
- -kina (-gina, -qina). Bu qoʻshimchalar oʻzakdan anglashilgan belgining kuchsizligini, ozligini bildiradi. K, g bilan bitgan soʻzlarga -kina q, gʻ bilan bitgan soʻzlarga -qina, boshqa hollarda -gina qoʻshimchasi qoʻshiladi: kichkinagina, yumshoqqina, tuzukkina.

Kuchaytirma sifatlar oʻzakdan anglashilgan rangning, belgining koʻpligini, ortiqqligini bildiradi va quyidagicha hosil qilinadi:

- sifatning bosh qismi p va m tovushlaridan biri bilan takrorlanadi: qizil – qip-qizil, koʻk – koʻm-koʻk. Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi (oppoq sifati qoʻshib yoziladi).
- sifatning birinchi boʻgʻini keyingi boʻgʻinining undosh tovush bilan birga takrorlanadi. Bu sifatlar ham chiziqcha bilan yoziladi: butun – but-butun, dumaloq – dum-dumaloq.
- sifatdan oldin toʻq, jiqqa, tim, gʻirt kabi soʻzlarni keltirish bilan: bunday sifatlar ajratib yoziladi: jiqqa hoʻl, tim qora.

Ko'pgina darsliklarda ozaytirma sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar, kuchaytirma sifatlar esa orttirma darajadagi sifatlar guruhiga kiradi.

Sifatlarning yasalishi.

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan. 2. So'zlarni qo'shish bilan. 3. So'zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

- otdan sifat yasovchi qo'shimchalar: -li: rasmlı kitob, kuchli shamol; -dor: aybdor, vafodor; ba-: badavlat, baquvvat; ser-: serhosil olma; -mard: kasalmand, davlatmand.

Yuqoridagi qo'shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi. -siz: tuzsiz ovqat; be-: beg'ubor, bexabar.

Bu qo'shimchalar esa (no- qo'shimchasi bilan birgalikda: noaniq, notinch) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi. -lik: toshkentlik (bola); -iy, -viy: tarbiyaviy soat, devoriy gazeta; -ga, -ki, -qi: bahorgi ishlar, qishki kiyim (paytga xos belgini bildiradi); -aki, -oqi: jizzaki, jirttaki, pistoqi; -yi: havoyi; -chan: ishchan bola; -simon: odamsimon maymun (o'xshashlik ma'nosini bildiradi); -kor, -gar: isyonkor, zulmkor, javobgar, ig'vogar; -i: qishloqi, qozoqi; -cha: farg'onacha, erkakcha, arabcha (o'yin); -namo: avliyonomo, darveshnamo; -parvar: xalqparvar, adolatparvar; -on: charog'on, za'faron; -aki: dahanaki, og'zaki; bad-: badbaxt, badnafs; -shumul: olamshumul, jahonshumul; -don: gapdon, bilimdon; -kash: dilkash, hazilkash; -bop: palovbop, qishbop; xush-: xufe'l, xushhavo; -in: erkin, otashin; -vor: devonavor, afsonavor; -parast: mansabparast, maishatparast; bar-: barhayot, barvaqt; -chil: xalqchil, izchil; -lik (-liq): ko'ylaklik (chit), bolalik (chog'lar); -i: jannati (kampir); -loq: baqaloq, qo'shaloq; -kor: devkor (ish), fusunkor (husn); -kash: zahmatkash (odam), noskash (kampir); -chi: gapchi (odam), vahimachi (ayol); -von: zo'ravon (odam); -qa: loyqa (suv); -omuz: hazilomuz (gap), zaharomuz (hazil); -xo'r: g'amxo'r (odam), go'shtxo'r (hayvon); -soz: soatsoz (usta); -dek (-day): muzdek (suv), jo'jabirday (jon);

- fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar: -choq, -chak, -chiq: maqtanchoq, kuyunchak, qizg'anchiq; -gir, -g'ir, -kir, -qir, -qur: sezgir, topqir, o'tkir, olg'ir,

uchqur; -ma: qaynatma shoʻrva, burama koʻylak; -k(-uk,-ik,-ak): chirik, teshik, tuzuk, gʻalvirak; -q(-uq, -iq,-a/oq): iliq, siniq, buzuq, qoloq; -oq: qochoq, qoʻrqoq, baqiroq; -qi: sayroqi qush; -qoq,-gʻoq: tirishqoq, uyushqoq, toygʻoq; -agʻon: bilagʻon, chopagʻon; -mon: bilarmon, qirarmon; -kun,-qin,-gʻin: tushkun, ozgʻin, joʻshqin; -gʻun,-qun: turgʻun, tutqun; -(a)rli: yetarli, zerikarli; -ch: tinch, jirkanch; -gʻich: yulgʻich (odam); -ongʻich: tepongʻich, suzongʻich; -ovuch: hurkovuch, iskovuch; -mas: oʻtmas (pichoq), indamas (odam); -(i)ndi: asrandi (bola); -a: koʻtara (savdo); -msiq: qarimsiq, achimsiq;

- boshqa turkumlardan sifat yasovchi qoʻshimchalar: ravishdan: -gi: kechagi, dastlabki; sifatdan: no-: nomaʼlum, notoʻgʻri; -lom: sogʻlom; taqlid soʻzlardan: -ildoq: bijildoq, likildoq.

2. Soʻzlarni qoʻshish, bogʻlash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

- qoʻshma sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qoʻshib yoziladi: bodomqovoq, sheryurak;

b) sifat va otdan. Bular qoʻshib yoziladi: qimmatbaho.

v) ot yoki ravishga -ar qoʻshimchali feʼlni qoʻshish bilan yasaladi. Bular qoʻshib yoziladi: tezoqar daryo, ertapishar (oʻrik)

g) otga aro, umum, yarim, gʻayri, nim, rang soʻzlarini qoʻshish bilan. Bular qoʻshib yoziladi: xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, gʻayridin, nimpushti.

Qoʻshma sifatlar: a) ikki tub soʻzdan tashkil topadi: sovuqqon, xomsemiz, kamgap;

b) biri tub, ikkinchisi yasama soʻzdan iborat boʻladi: ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, oʻzbilarmon.

- birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq soʻzdan iborat boʻladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan boʻladi, bunday sifatlar aralash, yoʻq, koʻp, oliy, och, toʻq, toʻla, chala, yarim, bir, ikki kabi soʻzlar ishtirokida hosil qilinadi: qum aralash (loy), tengi yoʻq, koʻp tarmoqli, oliy maʼlumotli, och qizil, qorni toʻq, toʻq qizil, toʻla huquqli, chala mulla, yarim avtomat, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli (dala), uzun tolali (paxta), yoshi ulugʻ (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).

- juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi; 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: erka-arzanda, boy-badavlat, sog'salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydin-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.

Sifatlarning juft shakli asosan antonimlardan hosil bo'ladi va umumlashtirish ma'nosini bildiradi: yaxshi-yomon (gap), katta-kichik (bolalar). Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: yakkayu yakka farzand.

3. So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: yo'l-yo'l (ko'ylak), manman (odam), shiqshiq (tugma), liplip (chiroq), chaqchaq (odam).

Sifatlarning takroriy formasi predmetning birdan ortiqligini, miqdoriy ko'pligini bildiradi. Bunda belgini alohida ta'kidlash, kuchaytirish ham bo'ladi. Sifat aniqlab kelgan ot ham, shu ma'noga mos holda, asosan ko'plik shaklida qo'llanadi: Turli shahar va qishloqlardan kelganliklari turlicha kiyim va shevalaridan bilinib turgan yosh-yosh yigit-qizlar konferensiya zalining ich-sirtini to'ldirib yuborgan edilar.

3.3 Ispan tilida sifat so'z turkumi

Sifatlar o'zining gapdagi o'rniga ko'ra turli vazifalarga egadir. Sifatning birinchi vazifasi o'ni chegaralash yoki o'zgartirishdir. Ushbu turkumdagi sifatlar: kishilik hamda egalik turlarga bo'linadi¹.

Masalan: Mi reloj no funciona. Mening soatim ishlamayapti.

Esta rosa tiene un perfume fuerte. Ushbu gul kuchli hidga ega.

Sifatning yana bir vazifasi, o'ni aniqlashtirish hamda otning ma'nosiga ko'ra, uni turli xil xususiyatlari va darajasini ko'rsatishdan iboratdir.

¹ Миньяр-Белоручев Р.К. "Последовательный перевод" – М., 1969. -323с.

Masalan: No quieres ese bolso grande y barato? Katta hamda arzon sumkani olishni xohlaysizmi?

Ba'zan, sifat vazifasi otni belgilashdir.

Masalan: Quiero un auto Aleman. Men Germaniya mashinasini olishni istayman.

Bu misolda mashina avtomobili qaysi millat vakili tomonidan ishlab chiqarilganligi aniqlashtirilgan. Ayrim istisno holatlardan tashqari, ispan tilida tavsiflovchi sifatlar odatda o'zgartirilgan otlarga bo'ysunadi.

Sifat so'z turkumidagi rod va son qoidalar.

Ispan tilida rod va son qo'shimchalari hamda otga bog'lanib kelgan qo'shimchalar, sifat-ot birikishi natijasida, ular o'zaro tenglikni hosil qiladi. Ya'ni agarda ot ko'plikda, birinchi shaxs birlikda hamda jenskiy rodda kelsa, sifat ham shu holatda bo'lishi lozim.

Masalan: La casa (uy-birlikda va jenskiy rodda), la casa blanca (oq uy- birlikda va jenskiy rodda)

-o bilan tugagan murskoy roddagi sifatlar, jenskiy rodda kelgan otga bog'lansa, sifat otga moyil bo'lib, o-a ga o'zgaradi. Agarda murskoy hamda jenskiy roddagi sitaflar ko'plikda kelsa, ularning ikkalasiga ham -s qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: Bueno-buena (yaxshi)

Esta camisa negra es importada de Italia. Bu qora ko'ylak Italiyada ishlab chiqarilgan.

Los zapatos rojos son de Espana. Qizil oyoq kiyimlar Ispaniyadan.

Ispan tilidagi ko'plab sifatlar murskoy hamda jenskiy rodda bir xil ko'rinishda egadir. Agar sifat -e bilan tugasa, ko'plik shaklda -s qo'shimchasi qo'shiladi. Sonor tovushlar bilan tugagan sifatlariga -es qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: Debil- debiles (oson)

Istisno holatlar. Ispan tilida shunday sifatlar borki, birlik shakldan ko'plik shaklga o'tganda -es qo'shimchasi qo'shilishidan oldin -z tovushi -c tovushiga o'zgaradi. Lekin, bu qoida millatni bildiruvchi sifatlariga tegishli emas.

Masalan: Feliz-felices (baxtli), quyidagi misollarda sifat bilan bog'liq bo'lgan holatlar berilgan:

1. Tina prefiere la ropa elegante. Tina xushbichim kiyimni afzal ko'radi.
2. Manuel compra unas camisas raras. Manuel qimmat turadigan ko'ylaklarni sotib oladi.
3. Hay programas violentas en la tele. Televizorda zo'ravonlik mavzusidagi ko'rsatuvlar bor.
4. Estos actores populares no quieren firmar autografos. Bu mashhur aktyorlar imzo qo'yishni xohlashmaydi.
5. Venden pendientes azules. Ular ko'k sirg'alarni sotib olishadi.
6. No has visto mi foto preferido. Mening afzal ko'rgan rasmimni ko'rmadingmi?
7. Prefiero el clima calida. Iliq ob-havoni afzal ko'raman.
8. Siempre me regalan corbatas feas el dia de mi cumpleanos. Odatda mening tug'ilgan kunimga yomon galstuklarni sovg'a qilishadi.

-an, -dor hamda -on qo'shimchalari bilan tugagan jenskiy roddagi sifatlar, murskoy rodda -a bilan tugaydi. Yodda saqlash kerakki, -ana va -ona qo'shimchalari bilan tugagan sifatlar jenskiy rodda ishlatilmaydi. Bunday sifatlarning ko'plik shaklida jenskiy rodga -es, murskoy rodga esa -s qo'shimchalari qo'shiladi.

Masalan: charlatan-(ko'p gapiradigan) jenskiy rodda - charlatan esa murskoy rodda.

Gloton-(ochko'z)jenskiy rod- glotona esa murskoy rod. Peleador- (urushqoq) jenskiy rod, peleadora esa murskoy rod.

Ko'plikda esa charlatanes – jenskiy rod, charlatanas – murskoy rod. Glotones-jenskiy rod, glotanas – murskoy rod. Peleadores – jenskiy rod, peleadoras – murskoy rod.

Mi hermana es muy habladora. Mening singlim ko'p gapiradigan.

Ma'lum bir millatni bildiruvchi sifatlar jenskiy rodda -a hamda murskoy rodda -o qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.

Masalan: mexicano – mexicana (meksikalik), peruano – peruana (perulik)

-a, -an, -es, ense va – i qo'shimchalari bilan tugaydigan ma'lum bir millatni bildiruvchi sifatlar ham mavjud bo'lib, ular ham jenskiy roddagi ham murskoy roddagi sifatlar hisoblanadi.

Masalan: Estos chocolates son belgas. Bu shikalatlar belgiyadan. El idioma catalan se habla en Cataluna. Katalan tili Kataluniyada gapiriladi. La nacion costarricense es admirada por su tradicion democratica. Kosta Rika millati o'zining demokratik an'analari bilan zavqlanadi.

Ikki yoki bundan ortiq otlar guruhi, biri murskoy rodda hamda bir yoki bundan ortig'i jenskiy rodda bo'lsa, bu holatda umumiy qoida sifatida otlar bilan birga ko'plik shaklidagi murskoy roddagi sifat ishlatiladi.

Masalan: A donde vas con el vestido y la chaqueta viejos? Eski ko'ylak hamda kurtka bilan qayerga boryapsan?

1. Juan trabaja mucho y bien. Es trabajador. Juan ko'p va yaxshi ishlaydi. U ishchi.
2. Siempre dice lo que piensa. Es sincero. Odatda uni o'ychan deb aytishadi. U xayolparas.
3. No dice la verdad. Es mentiroso. Haqiqatni aytmaydi. U yolg'onchi.
4. Quiere trabajar menos. Es holgazan. U kamroq ishlashni xohlaydi. U dangasa.
5. Quiere ser rico. Es ambicioso. Boy bo'lishni istaydi. U ehtirosli.
6. Prefiere pelear. Es agresivo. Urushishni afzal ko'radi. U urushqoq.
7. Hace donaciones. Es generoso. Ehsonlar qiladi. U saxiy.
8. Habla demasiado. Es charlatan. Juda ko'p gapiradi. U ko'p gapiradigan.
9. Se rie de los demas. Es burlon. Boshqalar ustidan kuladi. U masxarachi.
10. Tiene ideas diferentes. Es creativo. Unda turli xil go'yalar mavjud. U yaratuvchi. Ispan tilida sifatning joylashuvi. Ispan tilida sifatning o'rnini, otda nazarda tutilgan sifatning xabarga bog'lanishidan namoyon bo'ladi. Sifatlar asosan otga ma'lumot qo'shadi yoki xususiyatlarini tasvirlab beradi. Lekin bu qoidaga zid istisnalar ham mavjud¹:

¹ Миньяр-Белоручев Р.К. “Общая теория перевода и устный перевод” – М., 1980. -337с.

- Tasvirlovchi sifatlar otdan oldin joylashib, uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi.

Masalan: El fiero leon pasea por la selva. Yovoyi sher o'rmonda tentirab yuryapti.

Bu sifatlar shubhasiz tabiiy xususiyatlarga urg'u beradi. Bunday tartib asosan yozma hamda badiiy uslubda keng qo'llaniladi.

- Son va miqdor, egalik handa kishilik sifatleri har doim otdan oldin joylashadi.

Masalan: Queremos dos helados. Ikkita muzqaymoq xohlaymiz.

Hoy hay menos nieve. Bugun kamroq qor bor.

Mis problemas no son tus problemas.mening muammoyim sening muammoying emas.

Este edificio tiene cuatro ascensores. Bu binoda to'rta lift bor.

- Son va miqdorni bildiruvchi sifatlar noaniq (indefinidos) sifatlar deb ataladi, qachonki ular ma'lum bir shaxs, go'ya hamda narsalar to'g'risida aniq son va miqdorni bildirmasa. Bunday umumiy sifatlarining miqdori mavjud bo'lib, ular son va rod shakllariga egadir. Ba'zi noaniq sifatlar murskoy hamda jnskiy rodga bir xil ko'rinishga ega. Ular yuqoridagilar hisoblanadi:

Algun/alguna/algunos/algunas – ba'zi

Bastante/bastantes – yetarlicha

Cuanto/cuanta/cuantos/cuantas – qancha

Mucho/mucha/muchos/muchas – ko'p

Ningun/ninguna/ningunos/ningunas – yo'q

Poco/poca/pocos/pocas – kam

Suficiente/suficientes – yetarli

Varios/varias – bir nechta

Misollar : 1.El director traera algunos informes para sus empleados.Boshliq o'zining ishchilariga hisobotlarni olib keldi.

2. El director y el productor hablan de temas filosoficos. Boshliq va ishlab chiqaruvchi mantiqiy mavzular bo'yicha gaplashishdi.

3. No vamos a tomar muchas decisiones antes de las cinco. Soat beshgacha qaror qabul qilamiz.

4. En esta pelicula, Anna no consiguio ningunas zapatillas para ir a la fiesta. Bu filmda, Annaning bayramga boorish uchu oyoq kiyimi yo'q.

5. Esta pelicula no va a ganar ningun premio en el festival de cine. Bu film hech bir kinolar festevalida sovrin yutmagan.

6. Esto va a ser un proyecto dificil para nosotros. Bu reja biz uchun qiyin tuyuliyapti.

Sifat ot bilan birga kelib, joylashuv o'rniga qarab o'zining ma'nosini o'zgartiradi. Otdan oldin joylashgan sifatlar odatda fikrni ta'kidlashga xizmat qiladi.

Masalan : Don Quijote es una gran novela. Don Kixot katta asar.

Viven en una casa grande. Ular katta uyda yashashadi.

Bu misollarda o'zbek tilida har ikkala gapda ham bir xil shaklga ega, ya'ni sifat otdan oldin joylashgan. Lekin, ispan tilida sifat otdan oldin kelgani uchun, uning ma'nosi farqlaniladi. Birinchi gapda ta'kidlanish, ikkinchi gapda esa umumiy m'lumot berish nazarda tutilgan. O'zbek tilida sifat asosan otdan oldin kelib, sifatning gapda joylashuvi unchalik ahamiyatga ega emas.

Viven en una grande casa. Ular ajoyib uyda yashashadi.

Bu misolda esa casa bilan grande sifatlarining o'rni almashgan. Endilikda bu gap boshqacha mazmun kasb etadi. Ya'ni, uyning ajoyib hamda hashamatliligi nazarda tutilgan. Uyning hajmi esa muhim emas.

- Ma'nosi joylashgan o'rniga qarab aniqlanadigan ayrim sifatlar:

antiguo, -a, -os, -as/qadimiy

cierto, -a, -os, -as/qat'iy

cualquier/qandaydir

grande/katta

mismo, -a, -os, -as/bir xil

nuevo, -a, -os, -as/yangi

puro, -a, -os, -as/toza

simple/oson

unico, -a, -os, -as/yagona, faqat

viejo, -a, -os, -as/eski

Antiguo – otdan oldin kelsa oldingi, sobiq degan ma’no beradi, otdan keyin kelsa qadimiy ma’nosini beradi. Cierto – otdan oldin qat’iy, dadil degan ma’noga ega, otdan keyin esa ishongan degan ma’noga ega. Cualquier – qandaydir degan ma’noga ega, otdan keyin esa birorta degan ma’noga ega. Grande – otdan oldin kelsa ajoyib, otdan keyin kelsa katta, ulkan degan ma’noga ega. Mismo – otdan oldin bir xil, otdan keyin kelsa o’zi degan ma’noga ega. Nuevo – otdan oldin turli, farqli, otdan keyin kelsa yangi degan ma’noga ega. Puro - otdan oldin hech qaysi, otdan keyin kelsa toza degan ma’noga ega. Simple – otdan oldin oson, otdan keyin kelsa noaniq degan ma’noga ega. Unico – otdan oldin faqat birgina, yagona otdan keyin kelsa tanho, mislsiz degan ma’noga ega. Viejo – otdan oldin eski davrlar, o’shanda, otdan keyin kelsa eski degan ma’noga ega¹. Masalan :

1. ! Esta comedia es unico, fuera de serie!. Bu ko’p qismlarga ega yagona komediya filmidir.
2. Mi viejo amigo, Manuel, escribio el guion. Mening qari do’stim Manuel matn yozdi.
3. Un antiguo colega vino al teatro par ver la comedia. Sobiq hamkasbim komediya filmni ko’rish uchun teatrga keldi.
4. El protagonista es un hombre simple. Bosh qahramon oddiy inson.
5. Manolito siempre usa ideas nuevas. Manolito har doim yangi g’oyalardan foydalanadi.
6. Cualquier persona que venga al teatro se va a reir. Teatrga kelgan istagan kishi kuladi.

Qisqartma sifatlarning otdan oldin joylashuvi:

Agarda ular otdan oldin kelgan bo’lsa, qiqartirilgan ko’rinishdagi aniq sifatlار murskoy rodда bo’ladi. Har doim –o qo’shimchasi bilan tugaydi, chunki

¹ Найда Ю. “К науке переводить. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике” – М., 1978. -245с.

ular qisqartma sifatlar hisoblanadi. Ispan tilida qisqartma sifatlar “apocopes” deb ataladi.

Masalan : Si me ayudas eres un buen amigo. Agar menga yordam bersang, sen yaxshi do'st hisoblanasan. Yoki – Eres un amigo si me ayudes.

O'zbek tilida bir xil mazmundagi, ikki xil shakldagi gap bir xil tarjima qilinadi.

Qisqartma sifatlarning o'zak qismi:

Alguno – ba'zi, algun libro – ba'zi kitob

Bueno – yaxshi, buen consejo – yaxshi maslahat

Malo – yomon, mal ejemplo – yomon misol

Ninguno – hech bir, ningun soldado – hech bir harbiy

Primero – birinchi, el primer capitulo – birinchi qismi

Tercero – uchinchi, el tercer ano – uchinchi yil

Uno – bir yoki artikl un, uno, un poema – bir she'r

Algun hamda ningun sifatlari bir xil hisoblanadi. Cien va ciento sifatlari miqdorni bildiruvchi sifatlar hisoblanadi.

Cien – yuzlik sonlarini tuzishda ishlatiladi. Murskoy hamda jenskiy rodda cien moslashadi.

Masalan: Tengo solamente cien dolares en el bolsillo. Cho'ntagimda faqatgina yuz dollar bor.

La Casa de Representantes quiere cien mil millones. Namoyishchilar Uyi yuz ming million xohlaydi.

Ciento – bir yuz bir va undan balandroq sonlarni hosil qilishda ishlatiladi.

Masalan: Hay ciento noventa y nueve sillars en este salon. Bu xonada bir yuz to'qson to'qqizta o'rindiqlar bor.

San – santo sifatining qisqartma shakli hisoblanib, murskoy roddagi barcha avliyo nomlari oldidan ishlatiladi. Santo Domingo hamda Santo Tomas istisno bo'lib, san – bu avliyo nomlari oldidan ishlatilmaydi.

Masalan: San Francisco es una ciudad en California. San Francisco Kaliforniyadagi shahardir.

1. Celebro el primer dia del ano, el Ano Nuevo, en mi casa. Yangi yilning birinchi kunini uyimda nishonlayman.
2. Ahora tengo ciento cincuenta dolares en mi billetera. Hozir cho'ntagimda bir yuz o'n besh dollar bor.
3. Hay algunos extraterrestres entre nosotros. Bizning oramisda bir nechta chet elliklar bor.
4. Si los padres fuman delante de los ninos dan un mal ejemplo. Ota-onalar o'z farzandlari oldida yomon ta'surot qoldirib chekishadi.
5. No termino de leer el primer capitulo si la novela es aburrida. Agar asar zerikarli bo'lganida birinchi qismi tugamasdan o'qishni to'xtatar edim.
6. El viajero portugues trae un pasaporte vencido. Portugaliyalik qariya muddati o'tgan pasportni olib keldi.
7. El tercer ano en la universidad es dificil y largo. Universitetdagi uchinchi yil qiyin va uzun.
8. Han pasado tres meses. Uch oy o'tdi.
9. Pablo Neruda, el gran poeta chileno, es un personaje curioso en una pelicula italiana. Pablo Neruda, chiliyaning mashhur yozuvchisi, italiya filmidagi qiziq obraz.
10. Quien es el cantante famoso de San Juan?. San Juandagi mashhur qo'shiqchi kim?

Ikki yoki undan ortiq sifatlar otga bog'lovchilar va vergul orqali 0bog'lanadi hamda otga moslashib, o'zining izohini bildiradi.

Masalan: Tiene un perro simpatico y pequeno. Unda yoqimtoy hamda kichkina it bor.

El viaje fue largo, tedioso. Sayohat uzoq va zerikarli o'tdi.

Bu qoidalariga asoslangan holda, otdan oldin kelgan sifatlar o'z joyini o'zgartirsa boshqacha ma'no bildirishi mumkin.

Masalan: Vivian en un gran castillo medieval. Ular o'rta asrlarning ulkan qal'asida yashagan edilar.

1. Es cortes y generoso. U odobli va saxiy.

2. Escuchamos un ruido alto y claro. Baland va aniq ovozni eshitayapmiz.
3. Esta silla cuesta trescientos dolares. Bu o'rindiqlik uch yuz dollar turadi.
4. Un vaso de leche fria, por favor. Bir stakan yaxtak sut, iltimos.
5. Su oficina esta en una calle larga y estrecha. Uning idorasi tor va uzun ko'chada joylashgan.
6. Hay algunas tiendas nuevas en el primer piso de este centro commercial. Savdo markazining birinchi qavatida bir nechta yangi do'konlar bor.
7. Elly quiere una bicicleta nueva. Elly yap-yangi velosiped xohlaydi.
Sifat vazifasida keluvchi boshqa so'z turkumlari.

Ba'zi ot hamda fe'l so'z turkumlari gapda sifat vazifasida keladi.

Masalan: Rompi la ropa de cristal. Men shishadan yasalgan stakanni sindirdim. Bunda shisha (cristal) so'zi aslida ot so'z turkumi bo'lib, gapda sifat vazifasida kelgan. Bunday sifatlar nafaqat ispan tilida, balkim o'zbek tilida ham ko'pdir. Sifatdosh ham otni to'ldirib, gapda sifat vazifasida kelishi mumkin. Ispan tilida sifatdosh to'g'ri fe'llarga –ado, -ido qo'shimchalarini qo'shish orqali, noto'g'ri fe'llarga esa noto'g'ri fe'llar jadvalining sifatdosh qismi orqali hosil qilinadi. O'zbek tilida sifatdosh.

Masalan: Las islas situadas al oeste de Ecuador son las Galapagos. Ekuador chizig'ining g'arbiy qismida joylashgan orollar Galapagos Orollari deb ataladi.

El plato roto esta en la basura. Singan idish axlat qutisida.

La puerta esta cerrada. Yopilgan eshik.

Las pulseras de Esmeraldas son valiosas. Zumrad bilakuzuklar qimmatdir.

El pollo asado es mi comida favorita. Qovurilgan tovuqlar mening yoqtirgan ovqatim.

Conviene tener una casa de verano. Yozda uyli bo'laman.

En el invierno no uso ropa de algod6n. Qishda paxtadan tikilgan kiyim kiymanman.

Una fina caja de chocolates es un regalo apropiado para una novia. Shikaladdan yasalgan nozik quti sevgan qizim uchun yaxshi sovg'a.

IV-BOB. ANIQLOVCHINING GAP BO'LAKLARI ORASIDA TUTGAN O'RNI

4.1 Gaplarni bo'laklarga ajratish tamoyillari

Ma'lumki, sintaksisning eng asosiy va markaziy muammosi gapni tadqiq etishdan iboratdir. Gap kommunikativ ahamiyat kasb etishi bilan birga o'ziga xos strukturaga ham ega¹. Til o'zining kommunikativ vazifasini faqat gap orqali amalga oshiradi. Gapning tabiati, mohiyati, uning konstruktiv-grammatik belgilari, gapning so'z va so'z birikmalardan farqi, gapni bo'laklarga ajratish masalasi, gapda grammatik va semantik aspektlarning o'zaro munosabati, gap muammosi bilan bog'liq bo'lgan predikativlik va modallik kategoriyalarni o'rganish faqatgina sintaksis uchun emas, balki umumiy tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda bu masalalar turlicha talqin qilingan va turlicha baho berilgan. Avvalo, gap nima? Tilshunoslikda gap haqida turlicha ta'riflar mavjud. Masalan, Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qonun – qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligidir. Gap – fikr, tuyg'u va istakni boshqalarga bildirish uchun ishlatiladigan asosiy sintaktik birlik bo'lib, fikr bayon qilishning eng sodda formasidir. Gap so'zlovchining fikrini, his – tuyg'usini, buyruq – istagini aloqa jarayonida anglatish uchun xizmat qiladigan grammatik shakllangan nutq birligidir. Gap til qonuniyatlari asosida grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi. Gapning grammatik asosini predikativlik – zamon kategoriyasi va habar intonatsiyasi tashkil etadi. Gaplar strukturasi, kommunikativ funksiyasi va boshqa belgilarga ko'ra bir necha tipga bo'linadi.

Demak, gap sintaksisning asosiy birligidir. Gapning birlamchi asosiy funksional belgisi bu – kommunikativlikdir, ya'ni fikr ifodalash, bayon qilish vazifasidir.

Gapning ikkinchi muhim belgisi bu – grammatik – intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo'lishidir. Turkiy tugallik gapning

¹ Паршин А. "Теория и практика перевода" – М., 2001. -287с.

mundarijasini tashkil etadi. Bu tugallik tilda turli vositalar yordamida ifodalanadi. Gapning grammatik – intonatsion xususiyati uning struktura va intonatsiya jihatidan shakllangan bo‘lishi –undagi bo‘laklar, ularning grammatik bog‘lanishi, tartibi va intonatsiyaning birligidan, bir butunlik, yaxlitlik hosil qilishidan iborat.

Gapning uchinchi asosiy belgisi bu uning strukturasi (tuzilishi)dir¹. U o‘zining formal shakllanishi, mazmuni, bo‘laklarining bog‘lanish yo‘llari va funksiyasi bilan so‘zga va so‘z birikmasiga zid turadi. Gapning umumlashgan namunasi, maketi uning struktura sxemasini tashkil qiladi. Bu sxema gapning shakliy – grammatik tomoni bo‘lib, u gap hosil qilish uchun zarur bo‘lgan minimum komponentlardan tashkil topadi; ega+kesim: Dars boshlandi; ega + kesim + bog‘lama: Tursunoy singlim bo‘ladi.

Gap sintaktik tugallangan konstruksiya bo‘lib, bunday sintaktik konstruksiyalar til birliklarining birikish qonunlari asosida shakllanadi. Sintaktik konstruksiya, ularning shakllanishi sxemalari til taraqqiyotining turli darajalariga ko‘ra o‘zgarishi ham mumkin.

Gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Gap qismlari so‘zdan tashkil topadi. So‘zda esa gap mazmunining ma’lum bir qismi aks etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, gap tarkibiga kirgunga qadar mustaqil birlik sifatidagi mavqeini oqlashi shart emas.

Gapning xarakterli belgisi predikativlik va intonatsiyadir. Bu belgilar gapni shakllantiruvchi asosiy vosita sanaladi. Har bir gapning real borliq, hodisa, biror fikr, xabar bayon qilishi gap mundarijasining voqelik bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu hodisa – gap mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya hisoblanadi. Gapni predikatsiya shakllantiradi: bu grammatik kategoriya – umuman gapga xos xususiyatdir. Predikativlik ma’nosi konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalanadi. Predikativlikni shakllantirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor. Gap fikrni ifodalaydi, ma’lum

¹ Плеханова Т.Ф. “Текст как диалог” – Минск, 2002. – 253с.

maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa, birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosabati – modallik, zamon, shaxs-son bilan bog‘lanadi. Masalan, Biz kitobni o‘qidik misolida fikr voqelikka mos kelganligi ifodalangan – so‘zlovchi bu faktni real deb biladi (modallik), zamon (o‘tgan zamon), shaxs (birinchi shaxs) kategoriyalari bilan ifodalangan. Yoki Ertaga balki, yomg‘ir yog‘arr misolida esa hodisa taxmin tusida bayon qilingan, bundagi zamon va shaxs ham boshqacharoq. Demak, predikativlik modallik, zamon shaxs-son kategoriyalari bilan bog‘liq, shularni o‘z ichiga oladi. Gapning asosini tashkil etgan predikativlik hodisasi, odatda, so‘zlarning predikativ qo‘shilishi bilan ifodalanadi. Masalan, ega + kesim munosabati: Bahor keldi.. Bahor go‘zal. Lekin predikativlik bir so‘zdan iborat bo‘lgan gaplarda ham uchraydi. Tun. Kuz. kabi. Bunday gapda konkret gap bo‘lagini topib bo‘lmaydi. Demak, predikativlik bunday gaplarga butunicha xos bo‘ladi. Bularning hammasida, shubhasiz, intonatsion tugallik bor.

Predikativlik hodisasi orqali gap so‘z birikmasidan, predikativ qo‘shilma nopredikativ bo‘lmagan qo‘shilmadan farqlanadi. Masalan, go‘zal bahorr desak, bunda voqelikka munosabat, maqsad, zamon ko‘rsatilmaydi, intonatsion tugallik yo‘q – bunda fikr ifodalanmaydi. Bahor go‘zal desak, gapga xos intonatsiya, zamon, tugallik, voqelikka munosabat mavjud.

Predikativlik psixologik kategoriya bo‘lib, kesimlilik esa grammatik kategoriyadir¹. Predikatsiyaning asosiy belgilaridan biri tasdiq – inkordir. Bu xususiyat tilda turlicha ifodalanadi. Modallik predikatsiyada asosiy o‘rinni egallaydi. Modallik – gap mundarijasining voqelikka munosabati – aytilayotgan fikrning real holatga munosabati (tasdiq – inkor, mumkinlik, taxmin, shubha kabilar). Modallik umuman, voqelikka bo‘lgan munosabatni konkretlashtiradi. Demak, modallik gap mundarijasining obyektiv borliqqa munosabatini – so‘zlovchi tomonidan belgilangan munosabatni ifodalaydi: so‘zlovchining – subyektning voqelikka munosabati, gapdagi fikrni, uning realligini qanday baholash: real, haqiqiy deb bilishi (bugun mehmon keladi), shubha (bugun

¹ Рецкер Я.И. “Теория перевода и переводческая практика”- М., 1974. -321с.

mehmon kelarmikan?), taxmin (bugun mehmon kelsa kerak), istak (qani, bugun mehmon kelsa), ishonch (bugun, albatta, mehmon keladi) va boshqalar. Bunday baholashning soʻzlovchi tomonidan – soʻzlovchining nuqtai nazaridan belgilanishi – modallikning (shu fikrga, demak haqiqiy borliqqa boʻlgan munosabatning) ifodalanishi subyektiv xarakterda ekanligini koʻrsatadi, lekin bu belgilashning oʻzi obyektiv holat bilan aniqlanadi. Demak, modallik real borliqqa obyektiv – subyektiv munosabatni ifodalaydi.

Modallik turli vositalar bilan ifodalanadi:

- a) feʼlning mayl koʻrsatuvchi shakllari orqali (Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi) ;
- b) modal soʻzlar orqali (Menimcha, dars boʻlmaydi);
- v) modal yuklamalar, yordamchilar orqali (Bugun umumiy majlis boʻlishi kerak).

Baʼzan gapda modallik ifodalovchi vositalardan bir nechitasi birga kelishi mumkin. Masalan, Oʻylab koʻrarman..Ehtomol, sen haqdirsan.. Bunday ifoda kuchaytirish, taʼkid uchun xizmat qiladi. Bu gapda gumon, tahmin mazmuni ikki xil vosita orqali bildirilgan: Ehtimol soʻzi (modal soʻz), -dir elementi.

Umuman, modallik fikrning real – noreallik nuqtai nazaridan baholash ikki xil boʻladi:

1. Obyektiv modallik: aytilayotgan fikrning, xabarning obyektiv borliqqa munosabati (masalan, Koʻm-koʻk oʻtlar tongning mayin shamoli bilan sekin-sekin silkinmoqda. Bugun havo sovuq emas)
 - a) real modallik – aytilayotgan fikrning voqelikka mos kelishi (Bugun havo ochiq);
 - b) real boʻlmagan modallik – aytilayotgan fikrning voqelikka mos kelmasligi (Bugun yomgʻir yogʻsa edi).
2. Subyektiv modallik: soʻzlovchining – subyektning aytilayotgan fikrga munosabati (ishonish – ishonmaslik, tahmin va b.). Bu munosabat kirish soʻz, kirish konstruksiyalar bilan ifodalanadi. Masalan: Talabalarning ilmiy – nazariy konferensiyasi ertaga boshlansa kerak.

Modallik gapda ifodalanayotgan fikrning uch zamondan biriga tegishli boʻlishini koʻrsatadi.

Zamon. Har bir gapda ifodalangan fikr, albatta, zamon ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi. Har bir gapda zamon ma'nosini ifodalovchi vositalar bo'lishi shart emas, lekin har bir gapda zamon ma'nosi berilgan bo'ladi. Masalan: Singlim - talaba gapida zamonni ko'rsatuvchi element yo'q, lekin unda zamon bor. Ya'ni hozirgi zamon (hozirgi zamon ma'nosi ifodalanganda bog'lama qo'llanmaydi). Demak, zamon ma'nosini ifodalash uchun gapda fe'l bo'lishi shart emas, fe'lsiz gapda ham zamon bor. Ba'zan umumzamon hozirgi zamonga to'g'ri keladi. Masalan, Do'lana tog'da o'sadii. Bahor! Yoshlik ! kabi bir so'zdan iborat gaplarda ham zamon bor. Bunday holatda zamon ma'nosi matndan, vaziyatdan sezilib turadi.

Shaxs kategoriyasi ham gapda ajralmas zaruriy kategoriya hisoblanadi. Shaxs kategoriyasi modallik va zamon kategoriyalari bilan aloqador bo'lib, turlicha ifodalanadi. Son kategoriyasi bilan ham bog'liqdir. Chunki har bir shaxsda bor: Men keldim. Ular qaytdi. Ba'zan shaxs ma'nosi umumlashgan bo'lishi mumkin. Masalan, Yetti o'lchab bir kes: Sanamay sakkiz dema kabi.

Intonatsiya ham gapda muhim ahamiyat kasb etadi. Gapning grammatik – fikriy tugalligi, butunligi uning intonatsion tugalligi, butunligi bilan mos keladi; og'zaki nutqda gapning bir butunligini intonatsiya tashkil etadi. Ayrim so'z yoki so'z birikmasining gap yoki gap emasligini og'zaki nutqda intonatsiya orqali bilamiz. Masalan, Bu roman... Bu – roman. Bunda birinchisi gap emas, ikkinchisi gap. Demak, intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. U o'zaro bog'langan bir necha so'zni yoki yakka so'zning gap bo'lishida ishtirok etadi. Bunday intonatsiya gapga xos bo'lib, so'z birikmasida yo'q.

Predikativlik ma'lum darajada intonatsiya yordamida ifodalanadi. Ayniqsa, bir so'zdan iborat gaplarda buni yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, Yoz kunlariisidi.Tong.Mayin shamol esa boshladi. Shuningdek, gapning maqsadga ko'ra turlari, emotsionallikka ko'ra turlari ham ko'p hollarda intonatsion farqqa qarab belgilanadi. Masalan, Bahor . Bahor? Bahor!

Intonatsiya gapning modallik ottenkasini ham ko'rsatadi.

Demak, har qanday gapda tabiiy holda predikativlik mavjud bo‘ladi, unda esa mayl, zamon, shaxs-son ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar shakllanadi.

Predikativlik – gapni shakllantirish vositasidir. Gap boshqa sintaktik birliklardan predikativlik belgisi orqali farqlanadi. Gapni kommunikativ birlik sifatida shakllantiruvchi vosita ham predikativlikdir. Masalan: O‘rik gulladi va o‘rikning gullashi qurilmalarining axborot hajmi bir xil. Ular faqat shu obyektiv mazmunni qanday ifodalashi jihatidan farq qiladi, birinchisida predikativlik bor, ikkinchisida yo‘q.

Predikativlik gapning asosiy grammatik kategoriyasi bo‘lib, u tasdiq, inkor, modallik (mayl), zamon, shaxs son kategoriyalari sintezidan iborat.

Hozirgi sintaktik nazariyalarda gapning boshqa til birliklaridan asosiy belgisi predikativlik ekanligi tan olinsa ham, lekin bu hodisaga nisbatan yondashuvlar bir xil emas. Bu hodisa haqidagi qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Gapning bosh bo‘laklari ega va kesim munosabatini predikativlik deb hisoblaydi. Predikativlikka bunday qarash tilshunoslik tarixida vujudga keldi hamda mantiqiy oqim sifatida nomlandi. Bu oqimning qarashlariga ko‘ra, har bir gap ma’lum bir hukmni ifodalaydi. Predikatsiya hukm asosigina emas, balki gap asosini ham tashkil qiladi.

Bu qarashga birinchi bo‘lib, V.Vinogradov chek qo‘ydi. U predikativlikni faqat gap bo‘laklari o‘rtasidagi predikativ aloqa bilan bog‘liq emasligini, bu hodisa ayrim bo‘laklarga bo‘linmay, butun bir gapga xos ekanligini ko‘rsatadi. O‘z navbatida, N.Yu.Shvedova ham predikativlikni har bir gapda mavjud bo‘lishini, gapning grammatik asosi ekanligini qayd etadi.

2. Predikativlikka grammatik nuqtai nazardan yondashish. Masalan: Bahor keldi gapida birinchi qarash (an’anaviy) nuqtai nazaridan so‘z shaklining o‘zaro munosabatdan iborat. Ikkinchi nuqtai nazarga ko‘ra esa u ikki so‘z shaklning o‘zaro munosabatidan emas, gap tarkibida ishtirok etgan grammatik kategoriyalar: aniqlik mayli, o‘tgan zamon, III shaxs grammatik shakllari orqali ifodalangan.

XX asrning yarmidan boshlab vujudga kelgan munosabat logikasiga ko‘ra, hukm asosida faqat predikat turadi. Munosabat logikasi ta’sirida tilshunoslikda

gaplarning bir cho‘qqili nazariyasi vujudga keldi. Bunga ko‘ra gapning konstruktiv elementi predikat, qolganlari shu predikat valentliklarini reallashtiruvchi grammatik jihatdan unga tobe bo‘lgan bo‘laklar – argumentlar yoki variantlar hisoblanadi. Ega ham predikat aktanti sifatida rang (daraja) jihatdan to‘ldiruvchilar qatorida turadi. Kesim gapda bosh rolni o‘ynaydi, shuning uchun ham turkiy tillarda faqat kesimning o‘zi gapning konstruktiv birligi sanaladi. Shunga ko‘ra, turkiy tillarda kesim bosh bo‘lak, qolgan bo‘laklar esa ikkinchi darajali bo‘laklar hisoblanadi.

Aristotel logikasi asosida maydonga kelgan an’anaviy tilshunoslikda har qanday gap tarkibida ega – kesim munosabati yotadi, ega-kesim ifodalagan belgining tashuvchisi, kesim esa eganing belgisini to‘ldiruvchi bo‘lak deb hisoblanadi. Bu yo‘nalish tarafdorlari ega va kesimdan boshqa bo‘laklarni ikkinchi darajali bo‘laklar sifatida belgilaydilar va bosh bo‘laklardan biriga bog‘lanib, gapdan ifodalangan mazmunni kengaytirib kelishlarini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv ikkinchi darajali bo‘laklarning gapdagi mavqei bir xil emasligini, shu bilan mayda bo‘laklardan tashkil topgan nisbiy butunlik bo‘lishi mumkinligini tushuntirib bera olmaydi.

Gap bo‘laklari muayyan sintaktik pozitsiyada bo‘lib, tayanch nuqta hisoblanuvchi kesimga (predikatga) bog‘lanadi. Ular kesimning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldirib, unga nisbatan ma’lum vaziyat (pozitsiya)da keladi.

Kesimning “bosh o‘rin”larini to‘ldirib, ma’lum sintaktik vaziyatda keluvchi ega, hol, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir morfologik shakl yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi.

4.2 Izohlovchi

Izohlovchi boshqa sintaktik kategoriyalardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar izohlovchi va izohlanmish birikmasida ularning o‘zaro bog‘lanishida ko‘rinadi. Izohlovchi izohlanmish birikmasi va uning ifodalanmish usullari aniqlovchili birikmasining har ikki turi: qaratqichli va sifatlovchili birikmalardan farq qiladi. Akademik A.A. Shaxmatov, professor

A.G'.G'ulomovlar izohlovchini jins va tur munosabatini ifodalovchi grammatik kategoriya deb talqin etgan.

Otlarda nomlash xususiyatidan tashqari, shu substansiyaning hukmi va sifatiy belgilari ham mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham izohlovchi+izohlanmish munosabati predikativ munosabatlari bilan yaqin aloqada bo'ladi, ayrim hollarda esa shu munosabatlarda tug'iladi. Masalan, Turdali-usta. Usta so'zi Turdalining o'z kasbiga ko'ra mutaxassis ekanligini tasdiqlab, kesim vazifasida kelayapti (predikativ munosabat). Turdali usta quda bilan ilgari durust edi, uch yarim yashar qizchasi o'ldi-yu, orasi buzildi (A.Qahhor). Bu yerdagi izohlovchi nomlash xususiyatini saqlagan holda atributivlikni ham ifodalayapti (izohlovchi+izohlanmish munosabati). Prof A.G'ulomov izohlovchilarni ham qaratgich, ham sifatlovchi aniqlovchilardan farq qilishini ko'rsatib, izohlovchilar ham aniqlovchilarning bir ko'rinishidirki, ular o'zi tobe bo'lgan predmetni unga boshqa nom berish bilan aniqlaydi deya e'tirof etgan.

Ma'lumki, izohlovchi gap strukturasiidagi bosh hamda ikkinch darajali bo'laklarga, ya'ni ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklarga bo'g'lanib, bir sintaktik konstruksiyani tashkil etadi. Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib va predmetning boshqacha nomini bildiradi. Bu nom predmetning belgi-xususiyati bo'ladi.

Izohlovchi orqali izohlanmishning xususiyatli holati aniqlanadi. Demak, izohlovchining sitaktik-semantik vazifasi aniqlashdir. Izohlovchi gap tuzilishida gapning har qanday ot bilan ifodalangan bo'lagiga ergaishib kela oladi. Aniqlovchiga xos bunday va boshqa xususiyatning izohlovchining shu guruhga mansubligidan dalolat beradi. Biroq izohlovchining aniqlash xususiyati aniqlovchilardan boshqacharoq. Ya'ni izohlovchi aniqlanmishni boshqacha nom bilan atab aniqlaydi. Izohlovchi, izohlanmishga bog'lanib, uni turli tomondan izohlaydi.

Demak, izohlovchi aniqlovchining bir ko'rinishi sifatida unda predmet boshqacha nom olish bilan aniqlanadi; ya'ni shu predmetning o'zi yana boshqacha atalib, bu bilan u ma'lum xarakteristikaga ega bo'ladi. Demak,

izohlovchida bir ot ikkinchi otni aniqlaydi, izohlaydi: predmet bilan pretmet munosabatini ifodalaydi. Masalan, mingboshi dodhoning xotinlari munaqa yolvorishlarga juda balanddan turib qarardilar (ch).

Izohlovchi bilan izohlanmish bitishuv yo'li bilan aloqaga kirishadi va izohlovchili birikmani tashkil etadi. Ba'zi izohlovchilar o'zi bog'langan ot bilan juda zichlashib ketadi. Izohlovchilar shu xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: mustaqil izohlovchilar va mustaqil bo'lmagan izohlovchilar.

Mustaqil izohlovchilar ayrimlik, erkinlik holatiga ega bo'ladi, odatda, izohlanmish otdan keyin keladi. Bular o'zi bog'langan otdan tovush jihatidan ham ajralib turadi: ikki orada tovush uzilishi hosil bo'ladi. Zebi, qizim ko'zlarini mo'ltillatib, qo'li ko'ksida, bedarmon yotardi (Ch).

Mustaqil bo'lmagan izohlovchilarda ozohlovchi va izohlanmish orasida juda yaqinlik hosil bo'ladi, bir tomondan, uning izog'lovchisi kabi qo'llanadi. Mustaqil bo'lmagan izohlovchilar tovush jihatidan ham unchalik ayrim bo'la olmaydi. Ba'zin ular berikib bir bosh urg'u bilan aytiladi. Bu xususiyalar mustaqil bo'lmagan izohlovchilarni sifatlovchilarga yaqinlashtiradi. Bu vaqt ular vazifa, tartib, urg'u jihatidan sifatlovchiga o'xshab qoladi, shuning uchun ko'p o'rinlarda aniqlovchi bilan izohlovchi orasida yaqinlik yuzaga keladi.

Lekin ularning bir-biridan farqli tomomnlari ham bor.

1. Sifatlovchi aniqlovchini konstruksiyalarda aniqlovchi aniqlanmishning atribitni ko'rsatsa, izohlovchi + izohlanmish birikmasidagi belgi shu konstruksiyaning har ikki komponentining ham umumiy bo'ladi. Masalan, oltin soat tipidagi sifatlovchi konstruksiyalarda aniqlovchidagi atribut faqat aniqlanmishga tegishli bo'lib, predmet (soat) ning qanday materialdan tayyorlanganligini bildirsa, Salim tirtiq, usta Darmon singari izohlovchi konstruksiyalardagi xususiyat izohlovchi uchun ham, izohlanmish uchun ham umumiydir.

2. Aniqlovchi va izohlovchi konstruksiya tarkibida qo'llanish tartibi bilan ham bir-biridan farqlanadi. O'zbek tilida aniq lovchi, asosan, predpozitiv qo'llanadi. Masalan, yashil o'rmon tabiat chiroyiga yanada chiroy qo'shib yuborgan. Ba'zan

aniqlovchilar aniqlanmishdan keyin ham kelishi mumkin. Masalan, Bog‘imizda turli mevalar: olma, nok, o‘rik, gilos pishgan.

Izohlovchilar esa o‘zbek tilida izohlanmishdan goh oldin, goh keyin (prepozitiv hamda postpozitiv tarzda) kela oladi. Masalan, Bu kishi otangizning yaqin do‘stlaridan Mirzakarim qutidor (A.Qodiriy “O‘tgan kunlar”). Uning ketidan dam o‘tmay janjal Toshpo‘lat degan qotma bir yigitni boshlab kirdi (H. Shams).

Bunday izohlovchilar ko‘pincha kasb, mashg‘ulot, laqab, unvon, amal ma’nolarini anglatuvchi izohlovchi hisoblanadi. Izohlovchi oldin kelganda, ifodada unga ortiqroq e’tirof berilganligi sezilib turadi, izohlanmishdan keyin kelganda esa, izohlanmish va izohlovchilik munosabatida biror komponentga ortiq ahamiyat berilmay, munosabat oddiy yo‘sinda shakillangan bo‘ladi.

Demak, izohlovchilar aniqlovchilarning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, otlarning atributivlik xususiyati asosida jins va tur ma’nolarini anglatadigan gap bo‘lagidir. Izohlovchi izohlanmishning sifatiy belgisini anglatish bilan birga uni boshqa nom bilan ham ataydi.

Izohlovchi predmetning quyidagi belgi-xususiyatlarini bildirishi mumkin.

1. Unvonni bildiradi: kapitan Axmedov darg‘azablik bilan o‘rnidan turdi-da, hech nima demay chiqib ketdi.
2. Kasbni bildiradi: bugungi tantananing sababchisi rassom Malikov edi.
3. Amalini bildiradi: Kolxozimiz raisi Madamin Ismoilov kolxozlararo bellashuvda Oliy o‘rinni qo‘lga kiritdi.
4. Qarindoshlik yoki shunga o‘xshash belgini bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan keyin keladi: Eshon bobom sizdan dilgir emishlar,-deydi bir kun Qurbonbibi eriga.
5. Jinsini bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan oldin keladi: qiz bolaning yoshi o‘n yettidan o‘tganda ona tashvishga tushib qoladi (Ch).
6. Laqabni bildiradi. Bunda izohlovchi izohlanmishdan keyin keladi: Sadr cho‘loqning elchisiga ham mingboshi Poshshoxonning otasi tomonidan qo‘yilgan elchiga bergan javobni berdi (Ch).

Taxallus, o'xshashlik kabi xususiyatlarni ham bildiradi: ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas (M).

4.3 Gap bo'laklari ierarxiyasi

An'anaviy tilshunoslikdagi gap bo'laklariga va ularni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishda kuzatiladigan xilma-xillik bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning obyektiv kriteriylaridan kelib chiqadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differensial belgisi ularning predikativ asosga kirish kirmasligi, predikativ asosni hosil qilishda qatnashish qatnashmasligi hisoblanadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning har xilligi, birinchi navbatda, tilshunoslikdagi turli yo'nalishlarda predikativ asosni xilma – xil tushunish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda predikativ asosni ikki xil tushunish gapning ham ikki cho'qqili va bir cho'qqili nazariyaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Atributiv logika ta'siridagi tilshunoslar ega va kesimni bosh bo'laklar (gapning ikki cho'qqili nazariyasi) qolgan bo'laklarni ikkinchi darajali bo'laklar hisoblaydilar. Bunda quyidagi asosga tayanadilar. Birinchidan, bu konsepsiyaga ko'ra, har bir gapdan ma'lum hukm anglashiladi. Hukm doim ikki unsur (subyekt va predikat)ning munosabatidan iborat bo'ladi. Demak, har qanday gapning struktur asosi, konstitutiv birliklari subyektga mos keladigan ega, predikatga mos keladigan kesimlardir. Qolgan gap bo'laklari shu ikki konstitutiv birlikdan biriga bog'lanib, ma'lumot hajmini kengaytiradi. Ega va kesim munosabatida esa ega kesimga nisbatan hakamdir. Chunki predikat subyektning belgisini bildirganidek, kesim ham eganing belgisini bildiradi. Shuning uchun ham ega gapda absalyut hokim bo'lak hisoblanadi.

Ikkinchidan, predikativlik, bu konsepsiyaga ko'ra, predikatning subyekt bilan munosabati, grammatik planda esa kesimning ega bilan munosabatidir. Gapning asosiy belgisi predikativlik ekan, predikativ asos bo'lgan ega va kesim gapning konstitutiv birliklari – bosh bo'laklari bo'ladi. Ega va kesimni asosiy (bosh bo'lak), qolgan bo'laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo'lak hisoblash gapning struktur sxemasini belgilashda ham asosiy mezon rolini o'ynaydi. Gapning struktur sxemasini faqat grammatik tugallikka ega bo'lgan minimal birlik

sifatida tushunuvchi bir guruh) tilshunoslar fikriga ko'ra, struktur sxema gapning predikativ minimumini o'z ichiga oladi.

Biz bilamizki, har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat butunlik hisoblanadi. Gapning bu ichki tomoni o'zaro dialektik aloqada bo'lsa ham, bir butunni tashkil etuvchi alohida – alohida tuzilmalar bo'lganligi uchun o'ziga xos ma'lum xususiyatlarga ega. Avvalo, bu ikki tuzilma o'zining tuzilish birliklari bilan ham farq qiladi. Shuning uchun ham har qaysi tuzilmaning birliklarini alohida – alohida o'rganish va bu ikki tuzilma o'rtasidagi munosabatni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir gapda ma'lum obyektiv mazmun ma'lum moddiy vositalar – sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu moddiy ifodalanish tomoni uning shakliy (sintaktik) tuzilishi hisoblanadi. Sintaktik tuzilish ham o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha unsurlardan tashkil topgan bir butunlikdir. Sintaktik tuzilishning unsurlari an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari termini bilan nomlanadi. Gap bo'laklari – gap strukturasida ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'z birikmasidir.

Gapning shakliy tuzilishi juda uzoq davrlardan buyon gap bo'laklari rukni ostida o'rganilib kelinadi. B.S.Xrakovskiyning ta'kidlashicha, gap bo'laklari konsepsiyasi tilshunoslikda XX asr o'rtalarigacha gapning sintaktik tahlilida yetakchi rol o'ynagan bo'lsa ham, lekin bu konsepsiya tarafdorlari hech qachon bir umumiy g'oya ostida birlashgan emas. Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida gap bo'laklari masalasida xilma-xil g'oyalar olg'a tashlandi, turli – tuman yo'nalishlar maydonga keldi. Bunday xilma-xillik gap bo'laklarini darajalarga ajratishda ham, ikkinchi darajali bo'laklarni tasniflashda ham ko'rinadi¹.

Sintaktik tuzilish tarkibidagi barcha sintaktik shakllar gap bo'laklari tarkibiga kiritilmaydi. Gap bo'lagi ma'lum sintaktik shaklning shakliy sintagmatik munosabatdagi vaziyatiga qarab belgilanadi: ega vaziyati, kesim vaziyati, to'ldiruvchi vaziyati va boshqalar. Natijada ayrim mazmuniy munosabatda

¹ Федоров А.В. "Основы общей теории перевода" – М., 2002. -342с.

bo'lgan, lekin bu mazmuniy munosabat shakliy jihatdan tobe munosabat (aloqa) orqali emas, balki undash, kirish munosabatlari orqali ifodalangan birliklar sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi. Bu esa butunni bo'laklarga bo'lish asosiga ziddir. Chunki butun bo'laklarga ma'lum asosda shunday bo'linishi kerakki, butunning birorta unsuri bo'linishdan tashqarida qolmasligi kerak.

Demak, gap bo'laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to'la qamrab olmas ekan, gapni bo'laklarga ajratish yetarli asosga ega emas. Shuning uchun ham tilshunoslikda bu masala ham munozarali masalalardandir.

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilishi jihatdan uning ziddiyatini hisobga olgan holda quyidagi sintaktik shakllarga bo'lish mumkin.

- 1) Sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar;
- 2) Sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar.

Bularning birinchi guruhi an'anaviy gap bo'laklari hisoblanadi.

Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Muayyan so'z shaklning boshqa so'z shaklga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so'z shakli turli vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin.

Gap bo'lagi ham til birligi sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan murakkab butunlik, qurilma hisoblanadi. Gap bo'lagining shakl va mazmun tomoni ham o'z navbatida ma'lum unsurlarga ega. Shuning uchun ham gap bo'laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishlarini hamda ular o'rtasidagi munosabatni belgilash nazariy tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Gapning bu ikki tomoni butunlik tarkibida o'zaro aloqada bo'lib, ular butunlik elementlari sifatida o'zlarining alohida xususiyatlariga ega. Har ikkisi ham butunlik sifatida alohida elementlardan tuzilgan va gapda ular o'zaro munosabatga kirishadi. Gapning sintaktik strukturasi unda ifodalangan obyektiv mazmunni ifodalayotgan moddiy vositalar, ya'ni sintaktik shakllardan iboratdir. Sintaktik struktura ham butunlik sifatida o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha elementlardan tashkil topadi. Bu unsurlar an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari

atamasi bilan nomlanadi. Biroq sintaktik struktura (tuzilish) tarkibidagi barcha sintaktik shakllar gap bo‘laklari tarkibiga kiritilmaydi. An’anaviy tilshunoslikda sintaktik shaklning tobe aloqaga kirishishi uning gap bo‘lagi hisoblanishining bosh mezoni sanaladi.

Har qanday gap bo‘lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama-qarshiligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin morfologik shakl asosida hosil bo‘lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo‘lgan va unga nisbatan yuqoriroq shakldir. Chunki bir morfologik shakl bir nechta sintaktik shaklga asos bo‘lganidek, bir necha morfologik shakl bir sintaktik shaklga asos bo‘lishi ham mumkin. Masalan, O‘zbekiston mustaqil o‘lka jumlasiga bir xil morfologik shakldagi (bosh kelishik, birlik), ot ikki xil sintaktik vaziyatda kelyapti. O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Toshkent kundan – kunga go‘zallashib boryapti jumlasida esa kesim vaziyatida Toshkent va go‘zallashib boryapti sintaktik shaklga bosh kelishik, birlikdagi ot hamda o‘tgan zamon, bo‘lishli, uchinchi shaxs, birlikdagi fe‘l morfologik shakllar asos bo‘lgan.

Shunday bo‘lsa-da, bu ikki shakl biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Biri moddiy asos bo‘lsa, ikkinchisi uning vazifasi hisoblanadi.

Gap bo‘lagi mazmuniy jihatdan ham bir necha elementlardan tashkil topgan murakkab butunlik sanaladi. U bir tomondan, borliqdagi narsa va hodisalar, harakat – holatlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan gap tarkibida ishtirok etib boshqa ma’noga munosabatda bo‘ladi. Bu ma’nolar turli mualliflar tomonidan turlicha nomlanadi. Masalan, birinchi ma’no denotativ ma’no (Ufimseva), substansional (Z.Yelmslev), kategorial ma’no (Smirnitский va b.); ikkinchi ma’no esa funksional ma’no (Ne’matov, Botmanov); sintaktik ma’no (Muzin, Zolotova v.b.) singari terminlar bilan ifodalanadi¹.

Gap semantikasini tadqiq etish XX asrning 60-yillaridan boshlandi.

¹ Швейцер А.Д. “Перевод и лингвистика” – М., 1973. -282с.

Gapning semantik tuzilishi uch uzvdan iborat bo'ladi: a) propozitiv; b) modal; v) kommunikativ. Til birligi sifatidagi gap semantikasi, asosan, propozitiv va obyektiv modallikdan iborat bo'lib, nutq birligi sifatidagi gapda esa bu ikkisidan tashqari kommunikativlik va subyektiv modallik qo'shiladi.

N.Yu.Shvedova gapning mazmuniy tuzilishi sifatida tipiklashtirilgan ma'no elementlarining mavhumlashgan holda til sistemasida aks etgan mazmunini tushunadi. U gap mazmunini ekstralingvistik omillarsiz, sof til materiallariga tayangan holda o'rganishga harakat qiladi.

O.I.Moskalskaya boshqa yo'nalish tarafdorlaridan biri bo'lib, u gapning nominativ minimumi elementlarining leksik ma'nolariga asoslanadi. Bunda gapning mazmuniy tuzilishi sxemalari chegarasidan tashqarida ajratiladi.

Ye.N.Paduchevaning fikricha, gap ma'nosi leksema ma'nolaridan va sintaktik qurilmalarning ma'nolaridan tashkil topadi.

Semasiologik aspekt denotativ yoki nominativ aspekt deb yuritiladi. Bu aspektni ifodalash uchun tilshunoslikka mantiq va falsafiy tadqiqotlar ta'sirida kirib kelgan propozitsiya atamasidan foydalaniladi. Propozitsiya atamasi sifatida gapning subyektiv mazmuni va shakliy tuzilishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan boshqa ma'nolaridan farqlanuvchi obyektiv mazmun tushuniladi.

Gapning propozitiv tuzilishini predikat va uning argumentlari shakllantiradi. Predikat va uning argumentlari munosabati sintaktik modellarni vujudga keltiradi. Argumentlar predikatlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirib keladi. Predikat va uning argumentlari munosabati sintaktik modellarni vujudga keltiradi. Sintaktik modellar ma'lum sintaktik ma'no asosida ma'lum sintaktik maydonni hosil qiladi.

Propozitsiya obyektiv borliqning ma'lum bir nutq vaziyati bilan bog'liq parchasi, elementi bo'lib, gap semantikasida muhim o'rinni egallaydi.

An'anaga ko'ra, gap hukmning so'zlar vositasida ifodalanishi deb qaraladi. Shunga ko'ra, sintaksis mantiqiy kategoriyalar asosida o'rganiladi. Hukm mantiqda subyekt – predikat munosabatidan tashkil topgani sababli gap mazmuni ham subyekt – predikat strukturalariga ajratiladi. Subyekt ega va ega tarkibiga, predikat kesim va kesim tarkibiga tenglashtiriladi.

Gap bo'laklarining shakli deganda odatda, sintaktik butunlik sifatida uning sintaktik shakli, ma'nosi deyilganda esa sintaktik ma'nosi nazarda tutiladi. Demak, gap bo'laklarining shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabat aslida sintaktik shakl va sintaktik ma'no o'rtasidagi munosabatdir.

Voqea, hodisa haqidagi xabarni, so'roqni, buyruqni ifodalovchi sintaktik butunlik gapdir. Gap so'z va so'z birikmalaridan tuziladi. Gap so'z birikmasidan kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqadorligi bilan farqlanadi. Kesim gapning mundarijasi hisoblanadi. Bu mundarija fe'l-kesimning mayl va zamon qo'shimchalarini olish bilan hosil qilinadi.

Gaplar o'zbek tilida shakllanishiga ko'ra to'liq va to'liqsiz gaplarga bo'linadi. Nutq vaziyatidan muhim bo'lgan ayrim bo'laklar tushirilgan gap to'liqsiz gaplardir. Ular ko'proq dialok shaklida bo'ladi.

Masalan:

- Xat keldimi? (ulardan)
- Ha keldi (xat) ega bilan to'ldiruvchi
- hi tushirilgan
- Sen qayerga bormoqchisan?
- Samarqandga ega tushirilgan

To'liqsiz gaplar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda qo'llaniladi.

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra soda yig'iq va sodda yopiq gaplarga bo'linadi. Faqat ega va kesimdan tuzilgan gaplar sodda yig'iq gaplardir. Gap tarkibida ma'lum so'roqga javob beruvchi, mustaqil so'z va so'zlar birikmasi gap bo'laklari deyiladi. Gapda so'zlar o'zaro Grammatik munosabatga kirishib gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini faqat mustaqil so'zlarga bajaradi.

XULOSA

Ispan tili analitik o'zbek tili esa sintetik til ekanligi sababli tarjima jarayonida qator farqli holatlar aks etadi. Jumladan aniqlovchilarni tarjima qilishda ham shu holatga duch kelinadi.

Yuqorida "Aniqlovchilarning gapdagi o'rni" bo'limida ispan tilida aniqlovchilar aniqlanmishdan oldin ham keyin ham kelishi aytib o'tildi. Bu holat esa o'zbek tilida boshqacha, ya'ni aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi o'zbek tiliga xos. Aniqlovchining "ajratilgan aniqlovchi" turi aniqlanmishdan keyin keladi. Bu o'z navbatida sinxiron tarjimonlarga bir qator muommolar to'g'iradi. Aslida aniqlovchini yaxshi tushinish, uning gapdagi o'rnini qiyoslab o'rganish tarjimonlarga ham, yosh til o'rganuvchilarga ham tilni mukammal o'rganishda qo'l keladi.

Aniqlovchi sifat, sifatdosh, son, olmosh, bosh kelishikdagi va qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalansa u aniqlanmishdan oldin keladi va bunday holatlarda aniqlovchini o'zbek tiliga o'girishda muommo to'g'ilmaydi.

Agar aniqlanmish uno, un, no, cada kabi olmoshlardan yasalgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi. Sifatdosh ham sifatni bildirmasdan, faqat fe'llik ma'nosida ishlatilsa, u aniqlanmishdan keyin keladi va o'zbek tilida tarjimada o'sha aniqlovchini aniqlanmishdan oldinga qo'yishga e'tibor qaratish lozim. Buni bilish ispan tilidagi gapni ham yaxshi tushinishga yordam beradi.

Aniqlovchi sifatdoshli ibora, predlogli ot, infinitiv va predlogli gerund kabi leksik birliklar bilan ifodalanganda o'zi aniqlayotgan so'zdan keyin keladi va o'zbek tiliga tarjima qilishda bunga ahamiyat berib, aniqlovchini aniqlanmishdan oldinda qo'llash lozim.

Ispan tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda, son bilan ifodalangan aniqlovchilarni tarjimasiga e'tiborli bo'lish lozim.

Qator adabiyotlarni o'rganib, xulosa sifatida aniqlovchiga quyidagicha ta'rifni berish mumkin: Aniqlovchi sintaktik birlik ya'ni 2-darajali gap bo'lagi hisoblanib, u que? Que tipo es? (qanday?), de quien? (kimning?), cual? (qaysi?),

cuanto? (qancha?), cuanto? (nechta?) kabi so'roqlarga javob bo'lib, shaxs va predmetning belgisini bildirib keladi. Gapda mustaqil so'zlar, ularning vazifadosh shakllari, frazalar va ergash gaplar (sifat, sifatdosha, sifatdoshli ibora, son, olmosh, ot, infinitiv, gerundiy) bilan ifodalanib bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklari hamda gaplarni izohlab kela oladi. Aniqlovchi izohlayotgan, aniqlayotgan hokim qism – aniqlanmish ot bilan ba'zida olmosh (uno, unos, cada, no olmoshlaridan yasalgan olmoshlar) bilan ifodalanadi. Shu sababli “aniqlovchi otni va otlashgan so'zlarni aniqlab keladi deb ta'rif beriladi. Aniqlovchi ispan tilida “Adjetivo” , “Adjectico” atamallari bilan nomlanadi, ammo “Adjetivo” atamasi keng qo'llanadi va bu termin bizningcha tegishli sintaktik birlikni to'liq tavsiflay oladi.

Ammo ispan tili nazariy grammatikasiga doir adabiyotlarda aniqlovchining qanday gap bo'lagi borasida qizg'in bahs ketadi. Bu borada B. Ilish ko'plab misollarni keltirgan. Olim ko'proq “aniqlovchi o'zi ikkinchi darajali gap bo'lagimi?” savoliga javob topishga harakat qiladi. Olimning mushohadalariga e'tibor qarataylik: “Hozirgi ispan tilida otdan oldin keladigan aniqlovchilarning hajmi katta bo'lishi mumkin. Bu artikl va ot o'rtasida har qanday so'z kelaverishiga bog'liq, aynan shu o'rtada qo'llanilgan so'z yoki so'zlar aniqlovchi deb tushiniladi. Aniqlovchining ma'lum miqdorda uzun bo'lishini odatdagi badiiy uslubda uchratish mumkin.

Bunaqa aniqlovchilar butun ergash gapni ifodalay olganligi sabali, hajviy adabiyotda mutunosiblikka erisha olmoqda. Uning vazifasi berilgan qismning aniqlovchi funksiyasini bajarayotganini ko'rsatishdan iborat. Bu nutqda aytilmaydi, bu aniqlovchida ayniqsa sifatda son, rod, kelishik yo'qligi bilan izohlanadi.” Olim turli misollarni o'rganib chiqarkan aniqlovchini ikkinchi darajali gap bo'lagi emas, balki doim tobe munosabatda bo'ladigan, hatto boshqa bir ikkinchi darajali gap bo'lagiga ham ergashib kela oladigan fraza deb nomlaydi. Sintaktik aloqa – tobe-hokim munosabatda. Aslida barcha ikkinchi darajali gap bo'laklari bosh bo'laklarga tobe munosabatda bo'ladi, shu jihatdan gapda aniqlovchi boshqa ikkinchi darajali gap bo'laklari singari alohida o'ziga xoslik kasb etmayabdi, balki “ikkinchi darajali gap bo'laklaridan past darajada turibdi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ilmiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. «Kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori. 2017-yil 13-sentabr.
2. Karimov I. A. “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” – Toshkent, 2000. 61-bet.
3. Abdullaev M. va boshqalar “Ispan tili grammatikasi” – Toshkent, 2008
4. Mo`minov O., Turg'unov R., Rashidova A., Alimova D., Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. Toshkent, 2008.
5. Nazarova N. va boshqalar. Badiiy tarjima va uning ayirim masalalari. Qiyosiy-chog'ishtirma, tipologik va umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolari. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari), 2010.
6. O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek klassik adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida). Filol.fan. nom. Dis. Avtoreferat.-T.: 2008.
7. Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, Mumtoz so`z. 2011.
8. Salomov G'. “Tarjima nazariyasiga kirish” – Toshkent, 1978
9. Usmonov O'. U. “Xorijiy tillar nazariy grammatikasi” – Samarqand, 2012
10. Usmonov O'. U. “Xorijiy tillar nazariy grammatikasining dolzarb muommolari” – Samarqand, 2013
11. Zununov A., Hotamov H. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma.-Toshkent, “O'qituvchi”, 1978.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. “Словар лингвистических терминов” – М., 1969
2. Витганштейн Л. “Новое в зарубежной лингвистике” – М., 1985
3. Бўронов Ж. “Инглиз тили грамматикаси” – Т., 1989
4. Бархударов Л.С. “Язык и перевод” – М., 1975, 345с.
5. Богушевич Д.Г. “Об эволюции языка в современной лингвистике” – Минск, 2000, 267с.

6. Львовская З.Д. “Теоретические проблемы перевода” – М., 1985. -164с.
7. Миньяр-Белоручев Р.К. “Последовательный перевод” – М., 1969. -323с.
8. Миньяр-Белоручев Р.К. “Общая теория перевода и устный перевод” – М., 1980. -337с.
9. Найда Ю. “К науке переводить. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике” – М., 1978. -245с.
10. Паршин А. “Теория и практика перевода” – М., 2001. -287с.
11. Плеханова Т.Ф. “Текст как диалог” – Минск, 2002. – 253с.
12. Рецкер Я.И. “Теория перевода и переводческая практика”- М., 1974. - 321с.
13. Серль Д. “Лингвистические аспекты перевода” – М., 1998. -355с.
14. Федоров А.В. “Основы общей теории перевода” – М., 2002. -342с.
15. Швейцер А.Д. “Перевод и лингвистика” – М., 1973. -282с.
16. Войнич Э. Л. “Овод” – Москва, 1986
17. Voynich E. L. “The Gadfly” – Москва, 1986

Internet materilari:

1. www.wikipedia.com/genitivecase
2. www.wikipedia.com/genitivecase
3. www.wikipedia.com/adjetivos
4. www.españollibros.com